

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

Qo`lyozma huquqida

Rajabbayeva Shoirra Umirbek qizi

**“NEMIS VA O`ZBEK TILLARIDA TARKIBI BIR XIL LEKSIK
BIRLIKLARDAN IBORAT SO`Z BIRIKMASI VA QO`SHMA
SO`ZLARDAGI MA`NO FARQLARI ”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5120100-ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun taqdim
etilgan

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Jumaniyozov A. J.

Urganch-2016

MUNDARIJA

KIRISH	4
---------------------	---

I.BOB NEMIS VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z BIRIKMALARI VA QO'SHMA SO'ZLARNING O'RGANILISHI

1.1.O'z'bek tilida so'z birikmalari.....	8
1.2 Nemis tilida so'z birikmalari.....	11
1.3 O'zbek tilida qo'shma so'zlar.....	13
1.4 Nemis tilida qo'shma so'zlar.....	15
1.5 So'z birikmalarining qo'shma so'zlardan farqi.....	20

II. BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA TARKIBI BIR XIL LEKSIBIRLIKLARDAN IBORAT SO'Z BIRIKMALARI VA QO'SHMA SO'ZLARDAGI MA'NO FARQLARI

2.1.Birikma holatida ma'nosini tubdan o'zgartiradigan qo'shma so'zlar.....	24
2.2. Birikma holatidagi ma'nolarini ijobiylashtirgan yoki salbiylashtirgan qo'shma so'zlar	27
2.3.Birikma holatida ma'nosini ko'chma metanimik ma'no (bahuvrihi)ga aylantirgan qo'shma so'zlar.....	30
2.4.Birikma holatida ma'no qisman saqlanib, ko'chma ma'no, metaforik (sinesteza) xususiyat kashf etgan qo'shma so'zlar.....	35
2.5.Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, xususiylashib mahsus sohaga oidlik kashf etgan qo'shma so'zlar.....	37
2.6.Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, butunning bir bo'lagini anglatadigan qo'shma so'zlar.....	43

2.7.Birikma holatidagi umumiy ma’nosi o’zgarib, qo’shma holatda ularning konkret bir turini anglatadigan qo’shma so’zlar.....	47
2.8.Birikma holatidagi ma’nosini o’zgartirib, narsa va hodisalarning makon va zamon darajalarini bildirgan qo’shma so’zlar.....	54
2.9.Birikma holatidagi asliy ma’nosi o’zgarib, qo’shma holatda yangi ma’no kashf etgan qo’shma so’zlar.....	56
XULOSA.....	59
ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	61

KIRISH

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan chet tillarini o'qitish tizimini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Buni prezidentimizning 2012-yil 12-dekabr kuni "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli qarorining qabul qilinishi misolida ko'rishimiz mumkin. [1] Hozirda O'zbekiston jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatgan. Ana shu aloqalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun ham yoshlarning chet tillarini yuqori darajada bilishlari talab qilinmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish asosiy maqsadimiz qilib belgilandi.[1]

Mazkur qaror chiqqaniga mana to'rt yil bo'lyaptiki, uni dasturul amal qilib olgan xalqimizning chet tillariga bo'lgan e'tibori yana kuchaydi. Maktablarda chet tillarini o'rganish birinchi sinfdanoq boshlanyapti. Xatto ota-onalarimiz farzandlarining chet tillarini o'rganishlari darajasi bilan qiziqishmoqda, rahnamolik qilishmoqda. Bu masala mohiyatining birinchi tomoni bo'lsa, undanda muhimroq ikkinchi tomoni borki, u ham bo'lsa chet tillarini ilmiy nazariy o'rganishdir. Bu vazifani amalga oshirish birinchi navbatda chet tillari fakulteti va universitetlari talabalari zimmasiga tushmoqda, studentlar bitiruv malakaviy ishlarini, magistrantlar dissertatsiyalarini, assistentlar, doktorantlar o'z ilmiy ishlarini chet tillarini mukammal o'rganish, ularni amaliy va nazariy jihatdan ilmiy tadqiq qilish bilan shug'ullanmoqdalar. Shu ma'noda to'rtinchi bosqich talabasi sifatida biz mazkur tadqiqot ishimizni "Nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmalari va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlari"

mavzusiga bag'ishladik. Quyida mazkur mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarimiz sabablarini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Ishning dolzarbligi. Insoniyat o'zi so'zlashadigan tiliga faqat muloqot vositasi sifatida qarasa, u zamondoshlari tomonidan to'la tushunilmaydi, zero har qanday muloqot muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi va u maqsadlar albatta tilda aks etishi zarur, yoxud suhbatdosh fikri uning gapi (so'zlari) orqali anglashilinadi. Binobarin, ma'no so'zlar tomonidan tashiladi, suhbatdoshga yetkaziladi. Muloqotda bu hodisalar juda muhim bo'lib, har bir til egasi bilishi, bilmasa har kuni o'rganib borishi zarur. Bu zaruriyat insondan tilni umri bo'yi o'rganib yurishi kerakligini taqozo qiladi. Darhaqiqat, jamiyat uchun muloqotning har daqiqa, har soat, har kuni zarurligi, uning har daqiqa, har soat, har kuni ilmiy tadqiqoti dolzarbligiga izoh talab qilmaydi. Tillarni o'rganish, ular ustida ishlash doimo aktual masala bo'lib qoladi. Biz ham tilshunos sifatida ularni o'rganish, shu ma'noda ularning ma'nolarini, grammatik tuzilishini va boshqa sifatlari haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishimiz kerak. Hozirda so'zlarning ma'nolarini o'rganish juda dolzarb, sababi har bir so'zning ma'nosini bilmasdan turib uni qo'llab bo'lmaydi, qachonki biz shu so'zning ma'nosini tushunsak va anglasak o'shandagina uni to'g'ri qo'llay olamiz. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda har ikki tilning til birliklari sintagmatik jihatdan va ilk marotaba qiyosiy jihatdan tadqiq qilingan.

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusidan ma'lumki, ishimizning asosiy maqsadi nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmalari va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlarini o'rganishdir. Shu ma'noda bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi qismi asosan amaliy ishdan iborat bo'lib, unda tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmasi va qo'shma so'zlarning ma'no farqlarini ko'rib chiqish va ulardagi farq va o'xshash tomonlarning tahlili haqida fikr va mulohazalar bildiriladi va oldimizga quyidagi uchta vazifani qo'ydik:

1. So'z birikmalari va qo'shma so'zlar haqidagi barcha ilmiy ma'lumotlar bilan tanishish;

2. Tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarni yigʻish va ular bilan tanishish;

3. Ularni guruhlariga ajratish.

Ishning oʻrganilish darajasi va yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarning maʼno farqlari ilk marotaba qiyosiy jihatdan oʻrgandik. Oʻrganish jarayonida ularni toʻqqizta guruhga ajratib, shunga koʻra ularning oʻxshash va farqli tomonlari, turli xil maʼno anglatganligini tahlil qilganligimiz bitiruv malakaviy ishimizning yangiligidir.

Ishning metodlari va metodologiyasi. Ishimizda induktiv metoddan foydalanildi, yaʼni soddalikdan murakkablikka qarab ish tutildi. Misollar yigʻildi va misollar asosida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlar oʻrganildi. Shu metodlardan foydalanib boshqalarga taʼlim berish ishimizning metodologiyasi hisoblanadi.

Ishning asosiy manbalari. Ishga asosiy manbasi sifatida nazariy malumotlar uchun “Tilshunoslikka kirish” A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulov; “Tilshunoslikka kirish” O.Azizov; “Wörter und Wendungen” (Wörterbuch zum deutschen Sprachgebrauch) kitoblari xizmat qildilar. Ular umumiy tahlilda ishimiz uchun yoʻlchi chiroq vazifasini oʻtadilar. Amaliy manba sifatida Langenscheid (Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache) va Wahrig (deutsches Wörterbuch) qomusiy lugʻatlaridan foydalanildi.

Ishning joriyligi. Ishning borishi mavzuga yondashishlar va ishdagi koʻriladigan masala haqidagi shaxsiy fikr va mulohazalar ustoz shogird uchrashuvlarida talabalar ilmiy kengashlarida til toʻgaraklarida muhokama qilindi. Pedagogik amaliyot davrida ayrim holatlar dars jarayoniga qoʻshildi. Bitiruv malakaviy ishida koʻrib chiqilgan va oʻrganilgan soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlardagi maʼno farqlarini oliy oʻquv yurtlarida leksikologiya darsliklarida qoʻllanilishi mumkin.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi jihatdan kirish, ikki asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 71 betdan iborat.

I BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z BIRIKMALARI VA QO'SHMA SO'ZLARNING O'RGANILISHI

1.1.O'z'bek tilida so'z birikmalari

Semantik va grammatik jihatdan o'zaro sintaktik aloqaga kirishgan ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlar **so'z birikmasi** deyiladi.

So'z birikmasi nutq formasi bo'lib, ko'p tillarda ergash bog'lanish (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) asosida hosil bo'ladi. Bunday so'z birikmalari hokim va tobe bo'lakdan tashkil topadi. Aniqlanib, to'ldirilib kelayotgan bo'lak hokim, aniqlab, to'ldirib kelayotgan bo'lak tobe hisoblanadi. So'roq hokim bo'lakdan tobe bo'lakka beriladi: *katta bino- qanday bino?*

So'z birikmasining komponentlari mustaqil so'zlardan bo'ladi. Yordamchi so'zlar, jumladan, ko'makchi so'zlar, so'z birikmasining komponenti bo'lolmaydi. Ko'makchi so'zlar o'zlari aloqador bo'lgan mustaqil so'z bilan birga so'z birikmasining bir komponenti bo'lib keladi: *Telefon orqali gaplashmoq*

So'z birikmasi so'z, qo'shma so'z, turg'un birikma va gaplardan farq qiladi.

So'z leksik hodisa, so'z birikmasi grammatik hodisa. So'z so'z birikmasi kabi nominativ funksiyani bajarib, predmet, belgi, ish-harakatni, shu xildagi boshqa predmet, belgi, ish-harakatdan ajratib ifodalaydi. Qiyos qiling: *dala- ko'm-ko'k dala*.

So'z abstrakt ma'noli bo'lib, birikmaga kirishgach, uning ma'nosi konkretlik tomon siljiydi. So'z tarixiy kategoriya bo'lib, til birligidir, so'z birikmasi esa nutq protsessida hosil bo'ladi. Shuning uchun ham u nutq birligi hisoblanadi. [4;182]

Qo'shma so'zlarning komponentlari o'rtasida grammatik munosabat yo'q, ular o'z leksik-semantik mustaqilligini yo'qotib, bir bosh urg'u olib, gapda bir semantik vazifani bajaradi. So'z birikmasining komponentlari o'rtasida grammatik munosabat mavjud, ular leksik-semantik mustaqilligini saqlab, o'z urg'usiga ega bo'ladi, gapda boshqa-boshqa sintaktik funksiyani bajaradi.

Turg'un birikmalar butunligicha, yaxlit holda qo'llanib, til birligi hisoblansa, so'z birikmasi nutq protsessida hosil bo'ladi. So'z birikmasidagi so'zlar o'z leksik ma'nosini saqlaydi, turg'un birikma (frazologizm) dagi so'zlar esa butunicha o'z ma'nosidan ko'chdan yoki komponentlarining biri o'z ma'nosini o'zgartirib yuborgan bo'ladi. Qiyos qiling: *qo'l qo'ymoq- daftarni qo'ymoq*. [4;183]

So'z birikmasi modellari gap tuzish modellari kabi, til birligi bo'lib, konkret so'z birikmasi ham konkret gap kabi nutq birligi hisoblanadi. So'z birikmasi nominativ kategoriya bo'lsa, gap kommunikativ kategoriyadir.

Hokim bo'lakning qaysi so'z turkumidan ifodalanishiga qarab, so'z birikmalari quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) otli so'z birikmalari;
- 2) fe'lli so'z birikmasi;
- 3) favishli so'z birikmasi;
- 4) sifatli so'z birikmasi.

1.Otli so'z birikmalari. So'z birikmalarining bu turida hokim bo'lak ot yoki otlashgan so'zlar (olmosh, sifatdosh, son) bilan ifodalanadi. [4;183] Misollar:

O'zbek tilida: ot + ot – *ukamning kitobi*;

son + ot – *besh kishi*;

sifat + ot – *odobli farzand*;

sifatdosh + ot – *kechikkan poyezd*;

ravish + ot – *inglizcha musiqa*;

olmosh + ot – *bu student*;

ravish + sifat – *juda issiq*;

olmosh + sifat - *sendan yaxshi*;

Ingliz tilida: ot + ot – *stone wall, Karim's book*;

sifat + ot – *cold water, red pencil*;

son + ot – *five boys*;

sifatdosh + ot – *written letter*;

ot + ravish – *Page one*;

olmosh + ot – *Your hous*;

2. Felli soʻz birikmasi. Bunda hokim boʻlak vazifasida feʻl va ravishdosh keladi. [4,183] Misollar:

Oʻzbek tilida: ot + feʻl – *hayotni sevmok*;
ravish + feʻl – *tez ishlamoq*;
ravishdosh + feʻl – *kulib gapirmok*;
ot + ravishdosh – *vazifani bajarib*;

Ingliz tilida: feʻl + ot – *He met a bear*;
feʻl + ravish – *speak slowly*;
feʻl + infinitive – *came to rest*;
feʻl + son – *He has read two pages*;

3. Ravishli soʻz birikmasi. Bunda hokim boʻlak vazifasida ravish keladi. Misollar:

Oʻzbek rilida: ravish+ ravish – *juda tez*;
ot + ravish – *daraxtdan baland*;
Ingliz tilida: ravish + ravish – *very quickly*;
son + ot + ravish – *Five days ago*;

4. Sifatli soʻz birikmasida hokim boʻlak vazifasida sifat keladi. Misollar:

Oʻzbek tilida: *toshdan silliq, guldan nozik*;
Ingliz tilida: *a busy boy, an evening paper*.

Soʻz birikmalari tobe boʻlakning sintaktik vazifasiga koʻra toʻldiruvchili, aniqlovchili, holli soʻz birikmalariga boʻlinadi. Misollar: **Yolgʻonni** yashirib boʻlmas. **Ochiq havoda** sayr qilish. U **zavodda** ishlaydi va hokazo.

Soʻz birikmalarining strukturasi turli tillarda turlicha boʻladi. Masalan, fuziya hodisasida (rus tili) soʻzlar oʻzaro fleksiya orqali munosabatga kirishadi, analitik tillarda esa soʻzlar aksariyat koʻmakchi yoki artikllar yordamida birikadi. Masalan: rus tilida: *дверь комнаты* – ingliz tilida: *the door of the room*. Nemis tilida esa bu soʻz birikmalarida tobe soʻz artikl va otning oʻrtasida yoki kesim qismlari oʻrtasida kelib, oʻziga xos “ramka”ni hosil qiladi. [4,184]

Nemis tilida: Er **hat** dieses Buch **gelesen**. Buni ingliz tilida ham uchratamiz: long – long way.

1.2. Nemis tilida soʻz birikmalari

Maʼlumki nemis tilida soʻz birikmalarini oʻrganish, yoxud soʻzlar oʻzaro birikib qoʻllanganda ularning maʼnosining bir-biriga taʼsiri asosida kechadigan muayyan semantik oʻzgarishlarga qiziqish nisbatan erta boshlangan. Darvoqe, har bir soʻzning oʻz maʼnosi va uning ikkinchi bir soʻz bilan birikuvdagi oʻzaro maʼnan taʼsiri nemis tilshunoslarini (barcha tilshunoslarni ham) qiziqitirmay qoʻymas edi. Nemis tilida soʻz birikmalari bilan yosh grammatistlardan tortib, XIX asr boshlari, hozirgi zamon tilshunoslarigacha shugʻullanib kelayaptilar va ularning eng muhim va koʻzga koʻrinarli ishlaridan biri “Wörter und Wendungen” qomusiy lugʻatidir (1979 Veb bibliographisches Institut Leipzig). Bu lugʻat soʻz boshisiga asosan nemis tilida soʻz birikmalari quyidagilarga boʻlib oʻrganilgan:

1.2.1. Erkin soʻz birikmalari

1. Butun birikmaning maʼnosi alohida maʼnolarning yigʻindisidan kelib chiqadi, ular alohida soʻzlarga (erkin boʻlaklarga) ajraladigan va oʻzgaradigan xususiyatga ega boʻladi. Bu maʼnan qoʻllanilayotgan soʻz birikmalarining aniq variantlarining qoʻllanilishiga ijobiy taʼsir qiladi, maʼno jihatdan qarama-qarshilik, zid taʼsir boʻlmaydi. Ularni birga qoʻllash ifodalanishi kerak boʻlgan fakt orqali yuzaga chiqadi va yaratilgan fikr orqali asoslaniladi: [27;29]

Ein roter, blauer, grüner Kleiderstoffe; ein seltsames, merkwürdiges, bedeutsames, Ereignis; ein Fahrrad mit Ersatzteilen, ohne Beleuchtung; eine Tür, ein Schloss, einen Kasten öffnen; schnell, langsam, ins Kino gehen.

2. Bu yerda ham yuqorida aytib oʻtilgan munosabatlar amalga oshadi, lekin chegaralangan bogʻlanish kuzatiladi va tanlov ham qisman cheklangan boʻladi.

Die grüne Wiese; roter Wein; unter Umständen; ohne besondere Vorkommnisse; das Geschirr, den Tisch abräumen; im Fieber liegen.

1.2.2. Bog'liq bo'lmagan so'z birikmalari

1. Biror bir so'zning maxsus yoki biror fan sohasiga oid bo'lgan so'zlar bilan birga qo'llash butun birlikning ma'nosiga ta'sir qilad. Shu sabab birikma yasashda qo'llanilayotgan so'zlar o'zaro mushtarak ma'no anglatishiga ko'ra bog'lanadilar. Bu so'zlarni biron bir maqsad yoki biror sohaga (turmush tarzi, hayot, ish, fan) oid qo'llanilayotgani orqali aniqlash mumkin. Shu ma'noda so'zlar aslan bog'liq emas, lekin muayyan matn orqali bog'langan bo'ladi. [27;29]

Italienischer Salat; eine saure Gurke; kalte Küche; ein freudiges Ereignis; der absolute Nullpunkt; das passive Wahlrecht; Gas geben;

2. Bu yerda bir qancha so'zlardan iborat bo'lgan shaxs nomlari, sarlavha va rasmiy nomlarning ifodalanishini ko'rish mumkin.

Das rote Meer; der gelbe Fluß; die hohe Tatra; der Dreißigjährige Krieg; verdienter Arzt des Volkes; Union der Sozialistischen Sowjetrepubliken.

3. O'xshashlik asosida taqqoslash

Schwarz wie die Nacht; hart wie Stahl; er brummt wie ein Bär; das brennt wie Stroh, ist mehr als genug.

4. Bu guruhga kiruvchi birikmalarda bir bo'lak ma'nosi asosiy ma'nodan juda uzoqlashadi, lekin o'rnida qo'llash mumkin bo'lgan varianti mavjud. Umumiylik ma'nosini barcha bo'laklardan aniqlash mumkin bo'ladi.

Der eiserne (=feste) Bestand; ein bunter (=abwechslungsreicher) Abend; blinder (=irrtümlicher, unnötige) Alarm.

1.2.3. Turg'un birikmalar (iboralar, frazeologik birliklar)

1. Oddiy frazeologik birikmalar

Iboraning bir bo'lagi, ko'pincha fe'l qisman boshqa ma'noda qo'llaniladi. Ko'pchilik holatlarda u faqat fe'lning yoyiq holatda tasvirlanishidir. So'zlar chegaralangan hajmda ma'nodoshiga almashtiriladi:[27;29]

Abschied nehmen; Anordnungen treffen; Erfolg, Interesse, Aussichten haben; in Erwägung ziehen; in Anrechnung bringen; zum Ausdruck bringen.

2. Frazeologik birliklar

Bu iboralar nisbatan mazmunga boy bog'lanishga ega. Bunda voqea-hodisalar asosan boshqa so'zlar vositasida ochib beriladi. Birikmaning ma'nosi umumlashgan yoki ko'chma ma'noda bo'lishi kerak, natijada shu so'zning kaliti ko'chma ma'noda berilayotgan variantdan anglashilishi kerak bo'ladi. Ba'zi iboralar haqiqatda ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'ladi, lekin ko'pincha faqat shakli o'zgargan bo'ladi xolos:

Öl ins Feuer gießen; mir geht ein Licht auf; die Zelte abbrechen; auf der Palme sitzen; Stroh im Kopf haben; wie ein Buch reden; über den Berg sein.

Va yana quyidagi misollarni ham keltirishimiz mumkin:

Ein weißer Rabe; die Katze im Sack kaufen; zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen.

1.3. O'zbek tilida qo'shma so'zlar

Har bir tilda ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan anchagina qo'shma so'zlar bor. Ba'zan tillarda qo'shma so'zlar ikki so'zning bevosita, to'g'ridan-to'g'ri qo'shilishi bilan yasaladi. Bu hodisa, ayniqsa, turkiy tillarga, shu jumladan o'zbek tiliga xosdir. Masalan: ko'z+oyinak, osh+qozon, ish+buzar kabilar.

Bu xilda so'zlarning qo'shilib, yangi so'zlar yasalishi boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan, nemis tilida der Kopfschmerz – bosh og'riq (der Kopf-bosh, der Schmerz-og'riq). Rus tilida стен+газетаб пионер+ортяд.

Ba'zi tillarda ikki so'zni bir-biriga qo'shib so'z yasashda ma'lum Grammatik vositalarning ro'li kattadir. Bunday vositalar yordami bilan ikki so'z tutashib, yana ham zichlashib, butunlay bir so'z holiga keladi. Masalan, rus tilida o va e unlilari vositasi bilan ikki so'z qo'shilib, bir so'zni hosil qiladi: паровоз (пар+возить), пулемет (пуля+метать). [5;97]

Qo'shma so'zlarning bir turi abbreviatsiya (qisqartirish) yo'li bilan tuziladi. Bunday usul bilan hosil bo'lgan qo'shma otlar abbrevatura deyiladi: BMW, UrDU, YUNESCO, NATO kabi.

Abbreviatsiya yo'li bilan tuzilgan qo'shma otlarda ikki hodisa ajralib turadi:

- 1) Shartli qisqartirish (yoki grafik qisqartirish): v.b (va boshqalar)
- 2) Abbrevatura: BMT, BMW.

Qisqartma otlar turli yo'llar bilan hosil bo'ladi: mustaqil so'zlarning bosh tovushlaridan (harflardan), bosh qismlaridan yasaladi yoki birinchi so'zning bosh qismi bilan ikkinchi so'zning to'la qo'shilishidan yasaladi va hokazo.

Qisqartma qo'shma so'zlar ko'pincha rus tilida ishlatiladi. Masalan: совнархоз, ПТС, КПСС, райком, колхоз, зарплата kabilar. Rus tili ta'siri bilan o'zbek tilida ham ba'zi qisqartma qo'shma so'zlar paydo bo'ladi. Masalan: O'zdavnnashr (O'zbekiston davlat nashriyoti), Markazkom (Markaziy komitet), BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) kabi. [5;97]

So'zlarni takrorlash orqali (ming-ming, katta-katta, yurib-yurib, bora-bora kabi) hodisasi ham bir qancha tomonlari bilan qo'shma so'zlarga to'g'ri keladi. Ba'zi tillarda so'zni to'liq yoki qisman takrorlash orqali ham yangi so'zlar yasalishi hamda turli grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Takrorlash yo'li bilan so'z yasash va turli grammatik ma'nolarni ifodalash turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida ko'p uchraydi. Masalan: ko'p-ko'p (juda ko'p), katta-katta (ortiq darajada).

Shu xilda takrorlash yo'li bilan biror tushunchani kuchaytirish hollari ham uchraydi. Masalan: *gapira-gapira charchadi, kula-kula so'zladi*.

Turkiy tillarda takrorning yana boshqacha ko'rinishi ham bor. Bu hodisa jonli tilda ko'proq uchraydi: so'z takrorlanganda, ikkinchi elementning birinchi tovushi ko'pincha **p**, **m**, **s** yoki **ch** bilan almashtirib aytiladi yoki shu tovush orttiriladi (so'z unli bilan boshlangan bo'lsa). Masalan, *non-pon, choy-poy, dala-mala, pul-mul, patir-satir, meva-cheva, osh-posh, ot-pot* kabilar. Bunday so'zlarda asosiy ma'no birinchi qismda bo'ladi; takrorlangan qismning shakli o'zgarib, u birinchi so'zga qo'shimcha ma'no kiritadi. Masalan, *osh-posh* deganimizda: *osh* ovqatning bir turini bildirsa, *osh-posh* umuman har qanday ovqat yoki osh va oshga o'xshagan ovqatni anglatadi. [5;98]

Tabiatdagi predmetlarning, hodisalarning ovozig a taqlid qilib, ularni takrorlash orqali ham soʻz yasash yoki turli grammatik, stilistik maʼnolarni ifodalash mumkin. Masalan: *paq-paq, qah-qah (qah-qaha), shildir-shildir, taraqturuq, guldur-guldur, jarang-jurung, lip-lip, duk-duk, gʻivir-shivir* kabilar. [5;98]

Takror shakliga koʻra ikki xil boʻladi:

1) Toʻla takror (qizil-qizil)

2) Qisqargan takror (qip-qizil).

Turkiy tillarda sifatlarni qisman takrorlash orqali ularning orttirma darajasi yasaladi. Bu usul bilan, yaʼni reduplikatsiya usuli bilan orttirma daraja yasalganda, takrorning birinchi qismi oʻz shaklini birmuncha oʻzgartiradi. Masalan: *kap-katta, op-ochiq, oppa-ochiq, koʻm-koʻk, qip-qizil, qop-qora*.

Takrorlash yoʻli bilan soʻz yasash, Grammatik maʼnolarni ifodalash boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan: malay tilida *oran-kishi, oran-oran* esa koʻplikni, yaʼni *kishilar* degan maʼnoni; xitoy tilida λ (жень)-*kishi*, $\lambda\lambda$ (жень-жень)- *juda koʻp kishi* degan maʼnoni bildiradi.

Maʼno jihatidan bir-biriga yaqin boʻlgan va boshqa tipdagi soʻzlarning juftlashish hodisasi ham oʻzining bir qancha bilan reduplikatsiyaga oʻxshaydi: *asta-sekin, qari-qartang, kuch-quvvat, orzu-havas, qurt-qumursqa, xotin-qiz* kabilar. Bular juft soʻzlardir. Bunday soʻzlar umumlik, jamlik tushunchasini ifodalash, maʼnoni bir oz kengaytirish, kuchaytirish kabi funksiyalarni bajaradi. [5;98]

1.4. Nemis tilida qoʻshma soʻzlar

Qoʻshma soʻzda soʻzlar oʻzaklarni yonma-yon qoʻyish, soʻzlarni qoʻshish orqali yasaladi. Bu soʻz yasashning produktiv turidir va ayniqsa nemis tili qoʻshma soʻzlarga boy:

Die Wandzeitung, das Schlafzimmer, der Schreibtisch, junigrün, himmelblau, baumlang, spazierengehen, stattfinden va boshqalar.

Qo'shma so'z so'z yasallshining eng qadimiy turi. U ko'pgina so'zlarning sintaktik bog'lanishidan hosil bo'ladi. Qo'shma so'z so'z yasovchi hodisadir, u yangi leksik birlikning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va uning ma'nosi komponentlari ma'nosiga har doim ham to'g'ri kelavermaydi. [7;35]

Masalan: der Wollstoff- Stoff aus Wolle (bu yerda o'z ma'nosida)

Der Dickbauch- Man versteht darunter **gelebten Mensch**, nicht den dicken Bauch (bu yerda ko'chma ma'noda)

Qo'shma so'z so'z birikmalaridan quyidagilar orqali farqlanadi:

Qo'shib yozilishi (Großstadt-große Stadt);

Urg'u ('Großstadt - große 'Stadt);

Ma'no (Großstadt- eine Stadt mit über 100000 Einwohnern, große Stadt mit unter 100000 Einwohnern);

Ma'lum so'z tartibi;

Qo'llashda qulaylik.

Qo'shma so'z va sintaktik so'z birikmasi orasidagi farq shundan iboratki, so'nggi modallik qo'shma so'zda nima yetishmayotgan bo'lsa shuning o'rnini egallaydi.

Masalan: **das schwarze Brot** sintaktik guruhi quyidagi gapga to'g'ri keladi:

Das Brot ist schwarz. Bu har ikkala xususiyat xususiyatning va belgining mavjudlini tasdiqlaydi. Lekin **das Schwarzbrot** so'zida bu ma'no yo'qoladi. Xususiyat so'zdan ajralmaydi va butun bir so'z bir tushunchani ifodalaydi, ya'ni maxsus suli unidan yopiladigan non turini ifodalaydi.

Yana boshqa misolni olaylik, **Mutterherz** oti onaning yuragi emas, balki umumiy olganda onaga xos bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Qo'shma so'zlarni klassifikatsiyalovchi turli xil prinsiplar mavjud:

Morfologik o'rniga ko'ra. Qoida bo'yicha ikkita elementdan tashkil topadi. Birinchi element sifatida barcha so'z turkumlarini qo'llash mumkin. [7;36]

Qo'shma ot quyidagi morfologik strukturaga ega:

Substantiv + Substantiv = Haustier, Wandzeitung;

Adjektiv + Substantiv = Weißwein, Langohr;

Verbstamm + Substantiv = Rennplatz, Sterbebett;
Zahlwort + Substantiv = Zweikampf, Dreieck;
Pronomen + Substantiv = Selbstbildnis, Ichform;
Adverb + Substantiv = Allgemeinbildung, Voraussage;
Präposition + Substantiv = Aufsatz, Anschlag;
Adjektiv + Adjektiv = hellblau, dunkelbraun;
Substantiv + Adjektiv = blutrot, stockdumm;
Verbstamm + Adjektiv = scheibfaul, denkwürdig;
Zahlwort + Adjektiv = vierstöckig, dreisilbig;
Pronomen + Adjektiv = diesbezüglich, selbstgefällig;
Präposition + Adjektiv = ausländisch, unterirdisch;

Qo'shma fe'l quyidagicha:

Verb + Verb = spazieren gehen, sitzenbleiben;
Substantiv + Verb = teilnehmen, weggehen;
Adjektiv + Verb = freisprechen, stillstehen;
Zahlwort + Verb = vierteilen, dreifachen;
Adverb + Verb = weitermachen, fortfahren;

Qo'shma sonlar, ravishlar, ko'makchilar turli xil so'z turkumlaridan iborat bo'lishi mumkin, masalan: dreitausend, miteinander, herbei, abwärts, gegenüber v.b

Semantik – sintaktik o'rniga ko'ra qo'shma so'zni 4 ta turga bo'lish mumkin: [6;37]

1. Attributive Zusammensetzungen
2. Kopulative Zusammensetzungen
3. Zusammenrückungen
4. Zusammenbildungen

Attributive Zusammensetzungen ikkita komponentdan iborat bo'ladi. Bunda birinchi komponent ikkinchisini aniqlab keladi. Birinchi komponent aniqlovchiso'z, ikkinchisi esa asos so'z deyiladi. Bunda umumiy tushunchalar yanada konkretlashtiriladi, malasan, „karta“ so'zini olaylik. Birinchi komponent

orqali u konkretlashyapti, yani qaysi karta haqida gap ketayotganini bilish mumkin.

Spielkarte (*Symbolkärtchen eines Kartenspiels*)

Landkarte(*maßstäblich verkleinert dargestellte Abbildung einer Erdoberfläche*)

Fahrkarte (*Kärtchen, das zum Fahren berechtigt*)

Eintrittskarte (*Kärtchen, das einzutreten in eine Veranstaltung berechtigt*).

Nemis tilida shunda holatlar ham borki, unda ikkinchi komponent aniqlovchi soʻz vazifasini bajara oladi:

Das Jahrhundert, das Jahrzehnt v.b

Attributive Zusammensetzungen nafaqat ikkita komponentdan, balki undan ham koʻproq qismlardan tashkil topishi mumkin:[7;37]

Transportschiff

Transportschiffahrtsdirektor

Transportschiffahrtsdirektorsstellvertretende

Transportschiffahrtsdirektorsstellvertretendenfrau.

Strukturaga koʻra **haqiqiy** va **haqiqiy boʻlmagan qoʻshma soʻzlar mavjud**.

Bogʻlovchi elementsiz qoʻllangan qoʻshma soʻzlar haqiqiy qoʻshma soʻzlar deyiladi: *Wandzeitung, Realschule, Bodenreform* v. b

Bogʻlovchi qoʻshimcha bilan qoʻllanilgani esa haqiqiy boʻlmagan qoʻshma soʻzlar deyiladi: *Arbeitsplan, Klassenlehrer, Tageslicht*.

Attributive Zusammensetzungen yana bir turini **Bahuvrihi** deb atashadi. Bu termin hind tilidan kirib kelgan va sanskritda „yaxshi guruch“ degan maʼnoni anglatadi. Uning farqli jihati shundaki, u semantik xarakterga ega va mavjudotning xarakteristik belgisi yoki faoliyatini ifodalaydi. [7;38]

Masalan:

Schreihals (*jemand, der viel Geschrei macht*)

Dummkopf (*dummer, auffältiger Mensch*)

Blaustrumpf (*gelehrt wirkende oder wirkenvollende Frau*)

Grünschnabel(*jünger, unerfahrener Mensch*)

Trotzkopf (*trotziges Kind*)

Langohr (*Hase, Kaninchen*).

Kopulative Zusammensetzungen.

Ular ikkita grammatik elementdan tashkil topadi. Har bir element o'zining mustaqil ma'nosiga ega, lekin har ikkalasining birgalikdagi ma'nosi yangi bir tushunchani ifodalaydi. Bu elementlar orasida bog'lovchi bo'lmasligi ham mumkin va aksincha „va“ bog'lovchisi bilan bog'lanadigan holati ham mavjud.

Masalan: *taubstumm, der Strichpunkt, deutsch-russisch, dreizehn.*

Vater und Mutter, Mond und Sterne, Haus und Hof.

Kopulative Zusammensetzungen da oxirgi so'z butun bir so'zning grammatik xarakteristikasini ko'rsatadi. Masalan: **des** Dichterkomponisten, taubstummer Junge, blaugelbes Zelt.

Zusammenrückungen.

Ular qo'shma so'zlarning maxsus turini tashkil qiladi, ko'pgina so'zlarning va xatto kichik gaplarning ham bog'lanishida ishtirok qiladi. [7;39]

1.Als er das, in dem die Familie Meunier wohnte, endgültig verliess, war ihm zumute, als sei es ein **Nimmerwiederseher**.

2.Aber er hat noch nicht erlebt, dass ein Einmischer diese Behandlung erfuhr, **dieses Ausgestoßensein**, dieses **Nicht-mehr-Dazugehören**.

Zusammensetzungen erkin so'z birikmalaridan ham shakllanishi mumkin, masalan: *tagsüber, derzeit, derart v.b.*

Zusammenrückungen turli xil so'z turkumlariga oid bo'lishi mumkin:

Ot – *Gottseibeiuns, Inzuchthauskommen*,

Sifat – *allerhöchst*,

Ravish – *beiseite, mutterseelenallein, heutzutage*,

Fe'llar – *stehenbleiben, spazierengehen*.

To'liq va to'liq bo'lmagan Zusammenrückungen farqlash mumkin.

To'liq – *das Vergissmeinnicht, mutterseelenallein, der Habenichts*

To'liq bo'lmagan – *allein –zurück-bleiben, Einander-Verstehen, In-sich Geschlossenheit*

Zusammenbildungen

Ular ikkita jarayon sababli paydo bo'ladi: Zusammensetzung und Ableitung. Masalan: *Nichtstuer, Schuhmacher, Danksagung* [7; 39]

Schuh machen so'z birikmasidan **der Schuhmacher** oti yasaldi.

Bu yerda ko'rish mumkinki, **-er** qo'shimchasi butun bir guruhni bir so'zga birlashtirdi. Zusammenbildungen ning grammatik kategoriyasi suffixlar orqali aniqlanadi.

Zusammenbildungen va Zusammenrückungen zamonaviy nemis tilida keng tarqalgan.

Tadqiqot ishimizning yuqoridagi (1.1, 1.2, 1.3, 1.4) boblarida o'zbek va nemis tillaridagi so'z birikmalari va qo'shma so'zlarining tahliliga ma'nau xulosa qilinadigan bo'lsa, bu tillardagi so'z birikmalari va qo'shma so'zlar o'zaro fonetik (imlo va talaffuziga ko'ra), morfologik (o'zaro ma'no munosabatiga kirib shakllarini o'zgartirishi), semantik (ma'nolariga ko'ra) farqlanadilar.

1.5. So'z birikmalari va qo'shma so'zlarning fonetik farqlari

Biz tadqiqot manbai qilib olgan ikki til – nemis va o'zbek tillarida so'z birikmalari va qo'shma so'zlarning imlo va talaffuzidagi farqlarni belgilash tilshunoslar uchun deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Fonetik farqlar quyidagi holatlarda kuzatilishi mumkin:

1. Imloda – tabiiyki so'z birikmalari ajratilib, qo'shma so'zlar esa qo'shilib yoziladi. Imlodagi nemis va o'zbek tillaridagi farq nemis tilida barcha otlarning yoki otlashgan so'zlarning bosh harf bilan yozilishidir, yoxud so'z birikmasida uchrovchi ot ham va qo'shma so'zdagi uchrovchi otlarning birinchisi odatda bosh harf bilan yoziladi. Misol keltiramiz:

	O'zbekcha	Nemischa
So'z birikmasi:	qora non	das schwarze Brot
Qo'shma so'z:	qoranon	das Schwarzbrot

Keltirilgan misollarga nazar tashlanadigan bo'lsa nemis tilida mazkur so'z birikmadagi non so'zining, qo'shma so'zda esa schwarz so'zining bosh harflar bilan yozilganini ko'rish mumkin. O'zbek tilida esa harflarning katta-kichikligida farq yo'q va mazkur til birligi qoranon qo'shma so'zida qora non qo'shib yozilganini ko'ramiz. Biz o'rgangan lug'atlarda qora non so'zi imlosining qo'shib yozilgan variantini uchratmadik. Misol sifatida bu til birikmasini ishimizda qo'shib yozganimiz sababiga mazkur misollarning semantikasi – ma'no farqlari tahlilida to'xtalamiz.

Mazkur til biluvchilarning ikkinchi farqi **urg'uda** – yoxud bu so'zlarning o'zaro ma'no munosabatiga qarab ta'kidlanish xususiyatlari turlichaligidir.

	O'zbekcha	Nemischa
So'z birikmasi:	qora non	das schwarze Brot
Qo'shma so'z:	qoranon	das Schwarzbrot

So'zlarning urg'ulanishi bobida nemis tilida logik urg'ular nazardan chetda tutilsa, asosiy urg'uni otlar va u nisbatlab kelayotgan so'zlar esa yordamchi urg'u oladilar (misollarga qarang). O'zbek tilida ham qora non so'zining birikma sifatida va qo'shma so'z sifatida urg'ulanishida farq sezish qiyin emas. Mazkur so'zlarning imlo va talaffuz bo'yicha tushunish farqi nemis tilida birikmadagi -e tovushining tushib qolishidir.

1.5.1. So'z birikmasi va qo'shma so'zdagi morfologik farqlar.

Morfologik farqlar odatda so'zlarning yasalishi, qurilishi, qo'llanish so'z turkumlariga bog'liqdir. Shu ma'noda yuqorida fonetik tahlil qilingan o'zbekcha qora non, nemischa das schwarze Brot, va qora non nemischa das Schwarzbrot birikmalari va qo'shma so'zlarini quyida farqlashga harakat qilamiz. Tahlilning nemischa muqobillaridan boshlaymiz. Das schwarze Brot so'z birikmasi ikki so'z turkumiga oid so'zlardan iborat:

Schwarz – sifat va das Brot – ot

Schwarz- asliy sifat, oddiy darajada. So'z birikmasida esa uning grammatik ma'nosi bosh kelishik, birlik va sifatlarning kuchsiz turlanish sirasiga kiradi.

Das Brot so'zi turdosh ot, sredniy rod, kuchli turlanish, birlikda va birinchi tip ko'plik yasallish xususiyatiga ega.

Das Schwarzbrot qo'shma so'zi aniqlovchili qo'shma so'z (attributive Zusammensetzung) bo'lib, sifat+ot so'z yasallish modeli asosida yasallgan, kuchli turlanish, birlik va III shaxs shakliga ega. Mazkur so'z birikmalari so'z birikma sifatida kelishiklarda sifatlarning kuchsiz turlanish qoidasi asosida:

Das schwarze Brot

Des schwarzen Brot

Dem schwarzen Brot

Das schwarze Brot

Ko'rinishida va qo'shma so'z sifatida esa otlarning kuchsiz turlanishiga hos bo'lib:

Das Schwarzbrot

Des Schwarzbrot

Dem Schwarzbrot

Das Schwarzbrot

turlanadi.

O'zbek tili muqobillarida morfologik jihatdan katta farq yo'q. Birikma sifatdan, otdan yasallgan, qo'shma so'zda ularning qo'shib yozilishiga izoh ham hojat bo'lmasa kerak.

1.5.3.Semantik farqlar

Mazkur til birliklarining semantik farqlariga to'xtaladigan bo'lsak nemis tilida das schwarze Brot so'z birikmasi nonning ranggi va sifati nuqtai nazaridan qora ekanligi, bug'doyning non yopganda qora rangli nonlar tayyorlashda qo'llanadigan navlaridan tayyorlanganligi. Das Schwarzbrot qo'shma so'zi esa non turlarining alohida bir sortini anglatadi va o'zining shakli, shamoyili va ta'miga ega bo'ladi. O'zbek tilida so'z birikmalari va qo'shma so'zlar o'rtasidagi nemis tiliga o'xshash farqlar hali shakllangani yo'q. Lug'atlarda shu ma'nodagi so'zlar qayd qilinmagan, biz uchratmadik. Biroq xalq og'zaki tilida „non tandirdan qora chiqibdi, menga qora non yoqmadi“ gaplari orqali nonning ranggi almashilsa,

sotuvda qoranon (qora non) ko'p, biroq bahosi qimmatroq degan gapda nonning turi yoxud muayyan bir sorti inobatga olinayotganini sezish qiyin emas. Shu ma'noda qora non qo'shma so'zi hozircha og'zaki nutqda uchrayotganini ta'kidlash va muayyan vaqt kechishi bilan uning o'zbek tili lug'at tizimining asosiy til qayd qilish mumkin. Bizning bunga imonimiz komil.

II. BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA TARKIBI BIR XIL LEKSIK BIRLIKLARDAN IBORAT SO'Z BIRIKMALARI VA QO'SHMA SO'ZLARDAGI MA'NO FARQLARI

Tadqiqotimizning bu bobi asosan amaliy ishlarga bag'ishlanadi. So'z birikmalari va qo'shma so'zlarning ma'no farqlarini nemis va o'zbek tillarida ko'rib chiqish va ulardagi farq va o'xshash tomonlarni tahlil qilish uchun birinchi navbatda nemis tilidagi Langenscheid (Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache) va Wahrig (Deutsches Wörterbuch) kabi katta qomusiy izohli lug'atlardan 200 so'z birikmasi va uning qo'shma so'z varianti yig'ildi. Albatta bu so'zlarning birikma muqobili o'zbek tilida mavjud, biroq qo'shma so'z varianti yo'qligi (endi shakllanayotganligi) sababli amaliy tadqiqda nemischa misollarga asoslaniladi. Ko'p birliklarning o'zbek tili muqobili lug'atlarda qayd qilinmaganligi sababli ular og'zaki nutqdan olindi yoki bo'lmasa o'zimiz ijodiy yondoshdik. So'z birikmalari va qo'shma so'zlarning ma'no munosabatlariga qarab, ya'ni so'zlar ma'nolarining o'zaro singishib, mushtaraklashib ketish xususiyatlariga ko'ra qiziq-qiziq ma'no variantlariga duch kelindi. Ma'no mushtaraklashuvi birikma yoki qo'shma so'z ichidagi so'zlarni, avvalo, ayrim olgan holda keyinchalik qo'shma so'z yoki birikma sifatidagi ma'nolari asosida qilindi. Ma'no mushtaraklashuvining kechish jarayonlari xilma-xil ekanligi kuzatildi va ular quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganildi:

2.1. Birikma holatida ma'nosini tubdan o'zgartiradigan qo'shma so'zlar

Biz bu guruhga kiruvchi atigi ikkita qo'shma so'z topdik. Biroq shu misollar orqali ham so'z birikmasi tarkibidagi til birliklarini qo'shma so'zlar holatida o'z ma'nolarini tubdan o'zgartirganliklarini yetarlicha izohlab berish mumkin

das Altglas

das alte Glas

- Alt* – 1) schon seit vielen Jahren lebend
oder vorhanden;
2) mit Merkmalen des Alterns, mit Spuren
eines langen Lebens;
3) in/mit bestimmten Alter;
4) verwendet, um Menschen, aber auch Tiere;
und Pflanzen in Bezug auf ihr Alter zu vergleichen
5) lange gebraucht;
6) schon lange vorhanden, von langer Zeit
hergestellt oder erworben;
7) so, dass sie sehr oft vorkommen;
8) langjährig;
9) schon lange und überall bekannt;
10) aus einer früheren Zeit, Epoche;
11) aus dem Altertum = antik, klassisch;
12) durch das Alter wertvoll geworden;
13) bekannt = vertraut;
14) ehemalig, von früher;
15) verwendet, um jemanden auf vertrauliche
Weise anzurufen.

Das Glas – 1) ein durchsichtiges, hartes Material,
das leicht zerbricht und aus dem man z.B. Fensterscheiben
und Trinkgefäße herstellt

- 2) ein Trinkgefäß aus Glas;
3) die Menge einer Flüssigkeit, die in ein Glas passt;
4) ein Behälter aus Glas;
5) ein geschliffenes Stück Glas für eine Brille.

das Altglas

Bereits verwendete Flaschen
und Gläser, die gesammelt und
wiederverwendet werden

Das alte Glas soʻz birikmasi qoʻshma soʻz holatida kelganida oʻz maʼnosini tubdan oʻzgartiryabdi. Yaʼni yigʻiladigan va qayta qoʻllanadigan butilkalar va shisha idishlar nazarda tutilyabdi. *Das alte Glas* soʻz birikmasida eski qayta foydalanilmaydigan shisha idish nazarda tutilyabdi. Lekin soʻz birikmasi sifatida kelganida esa bu idishlardan qayta foydalanish maʼnosi mavjud. Yuqorida koʻrib oʻtganimizdek *alt* soʻzining 15 ta maʼnosi bor, biroq qoʻshma soʻz shaklida qoʻllanilganda uning faqat 5 ta maʼnosi toʻgʻri keladi xolos. Boshqa maʼnolari esa hayvonlar, insonlar, oʻsimliklar va boshqa narsalarga nisbatan ishlatiladi. Toʻgʻri, qoʻshma soʻz shaklida qoʻllanilganda ham eskilik maʼnosi bor, idishlar eski boʻlgan, biroq endi ulardan qayta qoʻllashda foydalanilyapti, demakki insonlarga nafi tegyabdi. Soʻz birikmasi shaklida esa u idishlardan qayta foydalanib boʻlmaydi, tashlab yuboriladi.

das Altpapier

das alte Papier

Alt- das Altglas soʻziga qarang

Das Papier – 1) weiße Material, auf das man schreibt, zeichnet und druckt;

2) ein Material, ähnlich wie Papier, das zu verschiedenen Zwecken benutzt wird;

3) ein Text mit wichtigen Informationen, den jemand aufbewahrt oder für Fachleute bestimmt ist.

das Altpapier

gebrauchtes Papier, das gesam-

melt und so bearbeitet wird, dass man es wiederverwenden

kann

Ushbu guruhga kiruvchi *das alte Papier* soʻz birikmasi ham qoʻshma soʻz shaklida qoʻllanilganda oʻz maʼnosini tubdan oʻzgartirgan. Bu yerda ham xuddi *das Altglas* soʻzida koʻrib oʻtganimiz kabi *alt* soʻzining 15 ta maʼnosidan 4 tasi toʻgʻri keladi. Soʻz birikmasi shaklida kelganida *ishlatilmaydigan va tashlab yuboriladigan eski qogʻoz*. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek qoʻshma soʻz boʻlib kelganda ham eskilik maʼnosi qisman bor, biroq endi *das Altpapier* soʻzi umuman yangi maʼno kashf etyabdi, yaʼni ishlatilgan qogʻozlar yigʻiladi va qayta qoʻllash uchun ishlanadi. Endilikda bu qogʻozdan foydalanish mumkin, demak nomlangan

misollarning ma'nosi umuman olganda o'xshash, biroq farqlari shundaki, *das Altglas* iborasida eski shishalarning qaysi shisha mahsulotlariga qarashli ekanligi (Gläser, Flaschen) qayd qilingan. *Das Altpapier* iborasida esa eski qog'ozning qaysi qog'oz mahsuloti qoldiqlari ekanligi qayd qilinmaydi, ma'no umumiy tushuniladi. Holbuki bugungi kunda eski qog'ozlar yig'ilganda turlarga ajratiladi, rangli, rangsiz, gazeta va jurnal va boshqa turdagi qog'ozlar alohida-alohida sortlarga ajratib yig'iladi va keyin ishlab chiqarishga jo'natiladi.

2.2. Birikma holatidagi ma'nolarini ijobiylashtirgan yoki salbiylashtirgan qo'shma so'zlar

Ushbu guruhga kiruvchi beshta misol topildi. Ular narsa va hodisalarning rang (braun, grau), sifat (alt), butunlik (halb), ishlov berilmaganlik (roh) kabi xususiyatlari bilan bog'liq. Mazkur misollarda qo'llanilib kelayotgan sifatlovchilar qo'shma so'z tarkibida kelganida ushbu so'zning ma'nosini yanada ijobiylashgabliligini yoki aksincha salbiylashganligini ko'rish mumkin. Quyida bu qo'shma so'zlardan ayrimlarini tahlil qilamiz va avvalo ma'nolar ijobiy xususiyat kashf etgan qo'shma so'zlarga to'xtalamiz:

das Altgold

das alte Gold

das Altgold

Alt – das Altglas so'ziga qarang

1. Gold, das eine dunklere Farbe

Das Gold - 1. Ein relativ weiches, wertvolles

bekommt hat.

Metall mit geblichem Glanz, aus dem man

2. Bereits verarbeitetes Gold, aus

Vor allem Münzen und Schmückstücke
macht.

dem neue Gegenstände ge-
macht werden können.

2. Ein Gegenstand, mst. ein Smückstück aus
Gold

Keltirilgan misollar izohidan ma'lum bo'layaptiki, *das alte Gold* so'z birikmasi qo'shma so'z sifatida *das Altgold* qo'llanilganda ma'nosi yanada ijobiylashgan. *Altgold* qo'shma so'zi polisemantiklik kashf etgan. Uning birinchi

ma'nosi deyarli so'z birikmasining ma'nosi bilan bir xil, ya'ni *eskirgan, rangi o'chib ketgan oltin* degan ma'noni anglatyabdi. Biroq ikkinchi ma'nosi butunlay yangi, oltinning sifatini bildiradi. Ya'ni qadimgi sof oltinga ishlov berish orqali yasalgan yangi zargarlik buyumlarini bildiradi. Xalqimiz qadimgi oltinni va undan yasalgan buyumlarni qadrlashadi, zero ular sof bo'lgan va hech qanday qalbaki metallar (ximikatlar) bilan aralashtirilmagan va ularning ko'rinishi ham boshqacha, sofliги ham sezilib turadi. Shu sabab hozigi kunda yasalayotgan zargarlik buyumlariga nisbatan qadimiy, sof oltinga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj yuqori va bu so'zning mazmun va zamirida yotgan – eski oltin – dan yasalgan barcha zebuziynatlar xalqimiz tomonidan xush ko'riladi va bozorda (savdoda) ijobiy baholaniladi.

Bunday taqinchoqlarni taqqan ayollarimizda mag'rurlik tuyg'usi, ularga ega bo'lmagan zamondoshlarida esa havas hissini payqash izoh talab qilmaydi.

die Braunkohle

die braune Kohle

Braun – 1. Von der Farbe, die Schokolade und Erde haben;
2. Von relativ dunkler Hautfarbe;
3. Braun gebrannt vom Aufenthalt in der Sonne gebräunt.

Die Kohle – 1. Eine harte, braune oder schwarze Substanz, die man zum Heizen verwendet;
2.eine kleine Menge Kohle;
3.ein Stift aus Kohle mit dem man zeichnet;
4.Geld.

die Braunkohle

eine Kohle, die nicht so hart ist wie die Steinkohle und beim Verbrennen viel Ruß erzeugt.

Bu misol orqali esa aksincha, ya'ni birikma holidagi ma'nolarini qo'shma so'zlarda salbiylashganligini ko'ramiz. So'z birikmasi holidagi shunchaki

ko'mirning ranggini anglatyabdi. Qo'shma so'z sifatida ham *rangini* bildiriyabdi, biroq *toshko'mirdek qattiq bo'lmagan ko'mir turini* ifodalayabdi. Uning salbiylik jihati shundaki, bu xildagi ko'mir turi yonganda issiqligi kam, kukuni ko'p va tutab yonadi.

die Graugans

die graue Gans

Grau – 1. Von der Farbe, die entsteht, wenn man schwarz und weiß mischt;
2. Von einer Farbe, die blutleer und krank wirkt;

zeitlich sehr weit entfernt und nicht genau bestimmt.

Die Gans – 1. Großer, meist weiß gefiederter Vogel mit gedrungenem Körper, langsam Hals und gewölbter oberer Schnabelhälfte;
2. Unerfahrene, junge, weibliche Person.

Ushbu qo'shma so'z ham o'z ma'nosini birozgina salbiylashtirish asosida o'zgartirgan desak bo'ladi. So'z birikmasi holatida kelganida faqatgina *g'ozning ranggini* anglatgan. Qo'shma so'z shaklida kelganida ham *ustki qismi qoramtir kulrang, pastki va bosh sohasi esa ochiq kulrang rangdagi g'ozni* ifodalayabdi, biroq shu bilan birga *yovvoyi g'oz turini* anglatyabdi, ya'ni kulrang salbiylikka ishora qilgan.

die Graugans

Wildgans (mit dunkelgrauer, meist weißlich quer gebänderter Oberseite; hellgrauer Unterseite und hellgrauem Kopf.

der Rohmarmor

der rohe Marmor

Roh – nicht zubereitet, ungekocht
Der Marmor – Kalkstein, der hauptsächlich das Mineral Kalkspat enthält.

der Rohmarmor

unbearbeiteter Marmor

Birikma holatidagi ma'nolarini yana salbiylashtirgan qo'shma so'zlar qatoriga quyidagi misolni ham kiritishimiz mumkin. Ushbu qo'shma so'zda *qayta*

ishlanmaganlik ma'nosi bor. *Der rohe Marmor* so'z birikmasi *hali tayyor bo'lmagan, me'yoriga yetmagan marmarni* anglatsa, qo'shma so'z shaklida esa *qayta ishlanmagan marmar* toshni bildiriyabdi. *Roh* sifati qo'shma so'z tarkibida o'z ma'nosini tamoman yo'qotgan emas.

die Rohbaumwolle

die rohe Baumwolle

Roh – der Rohmarmor so'ziga qarang
Die Baumwolle – Samenhaare des
 Baumwollstrauches

die Rohbaumwolle

ungereinigte Baumwolle nach der
 Ernte

Ushbu so'z birikmasi ham yuqoridagi so'z birikmasiga aynan o'xshashdir. Ushbu qo'shma so'zda ham *roh* sifati qo'shma so'z tarkibida kelib *ishlov berilmaganlik* ma'nosi anglashilyapti, ya'ni dalada hosil yig'ib olingandan keyin baribir tozalanmagan, qolib ketgan paxta qoldiqlari bo'ladi. Demak bu yerda shu ma'no tushuniladi. So'z birikmasi tarkibida kelganida esa *hali to'laligicha ochilmagan go'za* tushuniladi.

2.3.Birikma holatida ma'nosini ko'chma metanimik ma'no (bahuvrihi)ga aylantirgan qo'shma so'zlar

Guruhlarga ajratish jarayonida ushbu guruhga mos keluvchi to'rtta so'z topdik. Ularning ma'nolarini tahlil qilish jarayonida esa ushbu so'z birikmalarining qo'shma so'z sifatida qo'llanganida bir-biridan qiziq ma'nolar kelib chiqqaniga guvoh bo'ldik.

der Flachkopf

der flache Kopf

Flach –1. Ohne Erhebung oder Vertiefung
 =eben;
 2.Mit nur geringer Höhe = niedrig;
 3.So, dass es sich nur ganz wenig nach
 unten erstreckt;

der Flachkopf

Kind, junger Mensch mit
 hellblondem Haar.

4. Ohne etwas Wichtiges oder Neues =
nichtssagend.

Der Kopf – 1. Oft rundlicher Körperteil des
Menschen und vieler Tiere zu dem Gehirn,
Augen, Nase, Mund und Ohren gehören;

2. Personen, mit bestimmten Fähigkeiten;

3. Denk – Willenskraft;

4. Einzelperson innerhalb einer größeren Menge
von Menschen;

5.a) rundlicher oberer Teil von etwas,

b) essbarer, rundlicher Teil bestimmter
Gemüse.

So'z birikmasi qo'shma so'z sifatida qo'llanilganda uning tarkibidagi *flach* sifati o'z ma'nosini butunlay yo'qotgan desak ham bo'ladi. Qo'shma so'z tarkibida kelganda *flach* sifatining bitta ma'nosi ham yo'q. Ya'ni *tekis bosh* deya tarjima qilinayotgan so'z birikmasi qo'shma so'z bo'lib kelganida *sariq sochli bola* yoki *yosh odam* degan ma'nolarni ifodalagan. Bunda inson yoki jonzotlarning bitta xarakter xususiyati yoki holatini ifodalash orqali o'sha shaxs yoki jonzot nomlanadi.

der Dummkopf

der dumme Kopf

Dumm – 1.a) nicht klug, von schwacher,
nicht zureichender Intelligenz;

b) in seinem Verhalten, Tun wenig
Überlegung zeigend;

2. In ärgerlicher Weise unangenehm;
fatal;

3. Benommen, schwindling.

Der Kopf – der Flachskopf so'ziga qarang.

der Dummkopf

verwendet als Schimpfwort für
jemanden, den man für dumm
hält.

Bu soʻzda ham inson tana aʼzosining bir qismini aytish bilan oʻsha insonning oʻzi tushunilyapti. Yaʼni maʼno koʻchib oʻtgan hisoblanib, soʻz birikmasidagi ahmoq sifati qoʻshma soʻz tarkibida kelganida ham oʻz maʼnosini saqlab qolgan. *Der dumme Kopf* deganimizda *ahmoq* bosh tushunilsa, *der Dummkopf* qoʻshma soʻzida esa biron bir ahmoq deb hisoblaydigan shaxsga qarata aytiladi va koʻpincha unga nisbatan soʻkish soʻzi sifatida ishlatiladi.

der Schwachkopf

der schwache Kopf

Schwach – arm an Kraft, kraftlos, geschwächt; hinfällig, kränklich; machtlos.

Der Kopf – der Flachskopf soʻziga qarang

Bu soʻz birikmasi deyarli *der Dummkopf* soʻz birikmasiga oʻxshash. Biroq soʻz birikma tarkibidagi *schwach* soʻzi qoʻshma soʻz tarkibida kelganida oʻz maʼnosini oʻzgartirgan. Yaʼni endi bu soʻz kuchsiz maʼnosida emas, balki ahmoq odamni tasvirlash uchun ishlatilyabdi. Yuqorida izohlab oʻtgan *Dummkopf* soʻzi *Schwachkopf* bilan sinonim boʻla oladi.

der Schwachkopf

Dummkopf, verwendet, um jemanden bezeichnen, den man für dumm hält.

der Dickschädel

der dicke Schädel

Dick – 1. Von beträchtlichem, mehr als normalem Umfang; massig, nicht dünn;

2.a) eine bestimmte Dicke abweisend,

b) einen beträchtlichen Querschnitt aufweisend; stark, nicht dünn;

3. Krankhaft angeschwollen;

4. Dickflüssig, steif;

5. Dicht, undurchdringlich;

6. vertraut, eng.

Der Schädel – 1. Skelett des Kopfes;

der Dickschädel

Dickkopf – jemand, der eigensinnig ist, der nicht nachgibt.

2.Kopf;

3.Verstand, Kopf.

Bu soʻzni tahlil qilishda juda qiziqarli hodisani koʻrishimiz mumkin. *Dick* soʻzining soʻz birikmasidagi maʼnosini qarab chiqadigan boʻlsak, *semiz*, *kasallikdan shishgan* va shu kabi bir qator mavjud. Lekin qoʻshma soʻz tarkibida uning yuqorida sanab oʻtilgan maʼnolarini uchratmaymiz. Qoʻshma soʻz tarkibida u koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan. Yaʼni soʻz birikmasida *semiz bosh suyagi* maʼnosini anglatayotgan boʻlsa, qoʻshma soʻz sifatida esa butunlay boshqacha, *faqat oʻzini haq deb biladigan, faqat oʻz gapini maqullaydigan* va *boshqalarga taslim boʻlmaydigan odam* nazarda tutilgan.

der Blaubart

der blaue Bart

Blau – von der Farbe des wolkenlosen Himmels.

Der Bart – 1.Die (steifen) Haare auf der unteren Gesichtspartie der Männer;

2.Beharrung an der Schnauze vieler Säugetiere; Schnurrhaare;

3.Haarbüschel am Schnabel mancher Vögel.

der Blaubart

(nach dem französischen Märchen des 17. Jahrhunderts vom

Ritter Barbe Bleue):
Frauenmörder.

Aslini olganda soʻz birikmasi shaklida qoʻllanilganda ham, qoʻshma soʻz sifatida ishlatilganda ham deyarli bir xil, yaʼni *koʻk soqol* degan maʼnoni anglatadi. Farqi shundaki, qoʻshma soʻz shaklida u shaxsni ifodalayapti. Umuman olganda koʻk soqol boʻlmaydi. Bu yerda esa ertak qahramoniga nisbatan qoʻllanilgan. 17 asrda yashagan Barbe Bleue ertagida koʻk soqolli qirol boʻlgan. Uning davlati behisob boʻlgan, biroq u oʻz xotinlarini shafqatsizlarcha oʻldirgan. Yangidan uylanadi va koʻp oʻtmay yangi xotinini ham oʻldiradi. Shu tariqa qasrning sirli bir xonasi ayollar murdasi bilan toʻla boʻladi. Qirolning oxirgi uylangan yosh xotini oʻsha jasadlar bilan toʻla xonaga kirib qoladi va qoʻrqinchdan oʻzini yoʻqotib qoʻyadi. Buni bilgan qirol uni ham oʻldirishga harakat qiladi va toʻsatdan saroyga oʻt ketadi. Qizning akalari oʻrmonchi boʻlishadi va oʻrmonda yurgan paytlarida

saroyning yonayotganini ko'rib qoladilar va saroyga borishganida singlisini o'ldirishga harakat qilayotgan ko'ksoqolni ko'radilar va jang qilib uni o'ldiradilar. Shu tariqa singlisini qutqaradilar. Ko'ksoqol nomi ana shu ertakdan qolgan. Ya'ni qo'shma so'z bo'lib qo'llanilganda ertak qahramoni tushuniladi.

der Rotbart

der rote Bart

Rot – 1. Von der Farbe von Blut und
reifer Tomaten;

2. Von der ziemlich dunkler Farbe,
die ein Körperteil hat, wenn viel
Blut darin fließt;

3. (Haare) von dunkelgelber und
leicht rötlicher Farbe;

4. Mit kommunistischen oder sozialistischen
Prinzipien und Ideen.

Der Bart - Haarwuchs im Gesicht und am
Hals bei Menschen und Säugetieren.

der Rotbar

Mann mit rotem Bart.

Ushbu misolda ham yuqoridagi kabi inson tana a'zosining bir qismini aytish orqali shu insonning o'zi nazarda tutilyapti. So'z birikmasi shaklida qizil soqol, qo'shma so'z sifatida esa qizil soqolli shaxs ifodalangan. *Der rote Bart* qo'shma so'zi nemislarda ko'chma ma'noga ega emas. Biroq biz o'zbeklarda bu so'z ko'chma ma'noda ishlatiladi. Bizda qizil soqol deganda millatimizga boshqa millat vakili aralashib ketib ulardan dunyoga kelgan farzandlar tushuniladi va ular begona ko'riladi. Ko'pincha Aleksandr Makedonskiy askarlari va ulardan dunyoga kelgan farzandlarga nisbatan shu jumlani qo'llashgan. Ular bilan munosabat o'rnatishda ham tortinib, xohlamaygina aloqa qilishgan. Turmush nuqtai nazaridan ham sharoit taqozo qilmasa yoki majbur bo'lmasa ular bilan turmush qurishmagan.

2.4. Birikma holatida ma'no qisman saqlanib, ko'chma ma'no, metaforik (sinesteza) xususiyat kashf etgan qo'shma so'zlar

Ushbu guruhga mansub ikkita so'z topdik va shular orqali qo'shma so'zning birikma holatida ma'nosi qisman saqlanib, ko'chma ma'no, metaforik xususiyat kashf qilishini izohlashga harakat qildik.

die Duftwolke

die dufte Wolke

Dufte – ausgezeichnet, großartig, erstklassig.

Die Wolke – 1. Sichtbar in der Erdatmosphäre schwebende Ansammlung, Verdichtung von Wassertröpfchen oder Eiskristallen;

2. Menge von etwas, was - einer Wolke ähnlich - in der Luft schwebt, sich quellend, wirbelt in der Luft oder in einer flüssigen Substanz ausbreitet;

3. Bauschig drapierte Menge Stoff;

4. Ansammlung mikroskopisch kleiner Bläschen oder anderer Einschlüsse.

die Duftwolke

Ein starker Geruch, den jemand/ etwas hat.

Ushbu misolda biz yanada yangicha ma'no kashf etgan qo'shma so'zni ko'rishimiz mumkin. So'z birikmasi holatida ma'no qisman saqlangan, qo'shma so'z shaklida esa ko'chma ma'no, metaforik (sinesteza) xususiyat kashf etgan. Sinesteza bu hissiy a'zolarimiz orqali his qilishimiz mumkin bo'lgan narsalardir. Ya'ni *Duft burnimiz bilan hidlashimiz* mumkin bo'lgan hid, *Wolke* esa *ko'z bilan ko'rish mumkin* bo'lgan narsa. Demak biz ularni ikkita hissiy a'zolarimiz orqali anglashimiz mumkin. Bundan tashqari yana bitta alohida e'tiborli tomoni shundaki, mavzumizga oid topgan so'zlarimizning barchasida qo'shma so'z tarkibidagi sifat o'zidan keyingi so'zni izohlab kelgan bo'lsa, ushbu

izohlanayotgan soʻzimizda esa aksincha sifat izohlanyapti. Yaʼni *Duftwolke* deganimizda hidli bulut emas, balki *kimdandir yoki nimadandir keluvchi oʻtkir hid* nazarda tutilgan.

der Duftstoff

der dufte Stoff

Duft –ausgezeichnet, großartig,
erstklassig.

Der Stoff – 1.Aus Garn gewebtes, gewirktes,
gestricktes, in Bahnen aufgerollt in den
Handel kommendes Erzeugnis, das bes.
für Kleidung und Innenausstattung
verarbeitet wird;

2.In chemisch einheitlicher Form
vorliegende, durch charakteristische
physikalische und chemische Eigenschaften
kennzeichnende Materie; Substanz;

3.Alkohol

4.Etwas, was die thematische Grundlage für
eine künstlerische Gestaltung, wissenschaft-
liche Darstellung, Behandlung angibt.

Ushbu misol ham yuqorida izohlagan *die Duftwolke* qoʻshma soʻziga aynan oʻxshaydi. Yaʼni ikkita hissiy aʼzomiz orqali his qilishimiz mumkin boʻlgan narsalardir. Soʻz birikmasi holatida kelganida *xushboʻy hidli moddani* ifodalayapti, qoʻshma soʻz shaklida qoʻllanilganida esa *ayniqsa xususiyatga ega, yoqimli hid taratib turuvchi modda* nazarda tutilgan.

der Duftstoff

Eine Substanz, mit der ein
besonderer, angenehmer
Geruch erzeugt wird.

2.5. Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, xususiylashib mahsus sohaga oidlik kashf etgan qo'shma so'zlar

Ushbu guruhga monand bo'lgan sakkizta qo'shma so'z topdik. Quyida bu misollardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz:

die Breitwand

die breite Wand

- Breit* -1. Verwendet, um die kleinere Horizontale Ausdehnung einer Fläche oder eines Körpers anzugehen;
2. verwendet, um die horizontale Ausdehnung eines Gegenstandes anzugeben, wenn man ihn von vorne sieht;
3. So, dass es eine ziemliche oder überdurchschnittlich große Ausdehnung von einer Seite zu anderen hat;
4. Genau Details gebend und dabei oft vom Zentralen Themen abkommend;
5. Sehr viele Menschen betreffend;
6. Langsam und mit gedehnten Vokalen.

Die Wand – 1. Eine senkrecht stehende Fläche, die ein Haus oder einen Raum in einem Haus begrenzt;

2. Eine Art Wand, die man zusammenfalten kann.

die Breitwand

Eine sehr breite Leinwand im Kino, auf die Filme projiziert werden.

So'z birikmasi holatida kelganida *die breite Wand keng devor* ma'nosini ifodalayapti. Qo'shma so'z tarkibida *breit* so'zining 3ta ma'nosi ishtirok etgan. Biroq u qo'shma so'z shaklida kelganida *kinodagi keng ekran* nazarda tutilyapti,

ya'ni endi u devor ma'nosini o'zgartirib, maxsuslashgan holda ekranni ifodalaydigan bo'ldi.

die Fernbedienung

die ferne Bedienung

Fern – 1. Weit entfernt, in großer Entfernung befindlich;

2.a) weit zurückliegend, lange vergangen.

b) in weiteren Zukunft liegend.

Die Bedienung – 1. Das Bedienen eines Kunden, Gastes;

2. Das Handhaben, Steuern von Geräten;

3.a) In einer Gaststätte oder in einem Geschäft befindende Person;

b) Haushaltshilfe, Zugehfrau, Putzfrau;

4. Stelle als Bedienerin;

5. Einheit, die technische Geräte bedient;

Ushbu so'z birikmasi qo'shma so'z shaklida kelganida ma'nosini tubdan o'zgartirgan desak ham bo'ladi. *Fern* so'zi qo'shma so'z tarkibida kelganida ma'nosini saqlab qolgan, biroq endi u o'zi bilan kelgan ot bilan birgalikda boshqa bir narsani ifodalayapti, ya'ni u *masofadan turib mashina, televizor va shunga o'xshagan boshqa buyumlarni boshqaradigan kichik texnik asbobni* anglatyapti. Bir so'z bilan aytganda bugungi kunda u asbobni *pult* deb atashadi.

das Fernlicht

das ferne Licht

Fern – die Fernbedienung so'ziga qarang.

Das Licht – 1.a) etwas, was die Umgebung hell macht, erleuchtet und dadurch

Dinge sichtbar macht; Helligkeit;

die Fernbedienung

Ein kleines technisches Gerät, mit dem man ein anderes Gerät, eine Maschine von einem weiter entfernten Platz aus bedienen kann

das Fernlicht

Das Licht der Scheinwerfer eines Autos, das am weitesten leuchtet.

- b) Tageslicht;
- c) Beleuchtung;
- 2.a) Lampe, Lichtquelle;
- b) Kerze;
- c) elektrisches Strom zur Speisung
von Beleuchtungskörpern;
- 3. Glanzlicht;
- 4. Auge des Haarwildes.

Ushbu misolni tahlil qilar ekanmiz, soʻz birikmasi qoʻshma soʻz sifatida qoʻllanilganda juda qiziq maʼno kelib chiqishini kuzatishimiz mumkin. *Das ferne Licht uzoqdagi chiroq* degan maʼnoni bildirayotgan boʻlsa, qoʻshma soʻz boʻlib kelganida esa *uzoqni yoritadigan avtomobil faralarining chiroqini* ifodalagan. *Fern* soʻzi qoʻshma soʻz tarkibida kelganida oʻz maʼnosini saqlab qolgan desak ham boʻladi, biroq endi u yangi narsani nomlayapti, yaʼni maxsuslashdi.

der Halbbauer

der halbe Bauer

- Halb* – 1. So, dass etwas die Hälfte von
etwas umfasst, beträgt;
- 2. Zum Teil, nicht vollständig
- 3. Verwendet, um eine sehr große Gruppe
von Menschen zu bezeichnen;
- 4. Nicht so stark oder intensiv wie sonst.

Der Bauer – jemand, der Berufsmäßig ein
eigenes oder gepachtetes Stück Land
bebaut, Landmann, Ackersmann.

der Halbbauer

Kleinbauer.

Bu qoʻshma soʻz soʻz birikmasi holidagi maʼnosini butunlay oʻzgartirgan. Chunki *halb* soʻzi qoʻshma soʻz tarkibida kelganida yuqorida sanab oʻtilgan maʼnolari qoʻllanilmaydi, endi u oʻzidan keyingi keluvchi ot bilan birlashib yangi maʼno anglatyapti, yaʼni maxsuslashdi va *kichik dehqon* degan maʼnoni

ifodalayapti. So'z birikmasi bo'lib kelganida *yarim dehqon, ya'ni ham dehqon ham yana boshqa bir kasb egasi* degan ma'noni bildiradi.

der Flachbau

der flache Bau

Flach – 1. Ohne größere Erhebung oder Vertiefung, in der Breite ausgedehnt;
2. Niedrig, ohne größere Höhe;
3. Nicht tief;
4. Ohne (gedankliche) Tiefe und daher nichtssagend, unwesentlich;
oberflächlich, banal.

Der Bau – 1. Das Bauen, Errichten, Herstellen;
2. a) Art, in der etwas gebaut, aus seinen Teilen zusammengefügt ist;
b) der Körperbau;
3. Baustelle, Platz, wo gebaut wird;
4. Bauwerk, Gebäude;
5. a) Höhe als Unterschlupf bestimmter Säugetiere;
b) Wohnung, Behausung.

Ushbu qo'shma so'z ham birikma holatidagi ma'nosini o'zgartirgan, biroq qo'shma so'z tarkibida *flach* so'zi o'zining 2 ta ma'nosini saqlab qolgan. Avvalo, so'z birikmasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, *tekis, past bo'lgan qurilish* degan ma'noni anglatyapti. Qo'shma so'z sifatida esa *ikki qavatgacha balandlikda bo'lgan bino* nazarda tutilyapti.

die Früherkennung

die frühe Erkennung

Früh – 1. In der Zeit noch nicht weit fortgeschritten, am Anfang liegend,

die Früherkennung

die frühzeitige Entdeckung meist. einer Krankheit.

zeitig;

2.Früher, als erwartet, als normalerweise
geschehend, eintretend; frühzeitig,

vorzeitig;

3.Morgens, am Morgen.

Die Erkennung – das Erkennen.

So'z birikmasini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu so'z birikmasi *erta bilish, topish* kabi ma'nolarni anglatyapti. Qo'shma so'z tarkibida *früh* so'zining ikkala ma'nosi mavjud. Biroq bu yerda qo'shma so'z maxsuslashib, ko'pincha *meditsinaga oid* hisoblanib, *kasallikning erta aniqlanishi, topilishi* kabi ma'nolarni anglatgan.

der Freistaat

der freie Staat

Frei – der Freitag so'ziga qarang.

Der Staat – 1.a) Gesamtheit der
Institutionen, deren Zusammenwirkungen
das dauerhaft und geordnete Zusammenleben
der in einem bestimmten abgegrenzten
Territorium lebenden Menschen
gewährleisten soll;

b) Territorium, auf das sich die Gebietshoheit
eines Staates erstreckt, Staatsgebiet;

2.Insektenstaat;

3.a) festliche Kleidung;

b) Gesamtheit der Personen im Umkreis,
im gefolge einer hochgestellten Persönlichkeit.

der Freistaat

verwendet in der Bezeichnung
für die Bundesländer Bayern,
Sachsen und Thüringen.

Der Freistaat so'z birikmasi shaklida *ozod va erkin* mamlakatni anglatyapti. Qo'shma so'z holatida esa *Bavariya, Tyuringen va Zahsen davlatlarining nomi va*

ularni ko'rsatish uchun qo'llanilgan. Endi bu qo'shma so'zning ma'nosi yanada konkretlashdi va davlatlarning nomi sifatida ishlatiladi.

die Neuerscheinung

die neue Erscheinung

Neu – 1. Erst vor kurzer Zeit
hergestellt, noch nicht gebraucht;

2. Aus der kürzlich eingebrachten

Ernte stammend;

3. Erst seit kurzem vorhanden,

bestehend vor kurzer Zeit entstanden,

begründet; davor noch nicht da gewesen;

4. Noch zur Gegenwart gehört oder

nicht lange zurückliegend; aus einer Zeit,

die zur Gegenwart gehört oder nicht lange

zurückliegt;

5. Seit kurzem an die Stelle einer anderen

Person oder Sache getreten.

Die Erscheinung – 1. Wahrnehmbarer Vorgang;

2. Durch ihr Äußeres, ihr Erscheinungsbild in

bestimmter Weise wirkende Persönlichkeit;

3. Vision, Traumbild.

die Neuerscheinung

Etwas, das vor kurzem auf den Markt
gekommen ist oder bald kommen wird

Ushbu so'z birikmasining qo'shma so'z holatida qo'llanilganda juda qiziq va birikmaga bog'liq bo'lmagan ma'nosi mavjud. Birikma holatida *yangi hodisa*, *voqea* ma'nosini bildiriyapti. Qo'shma so'z sifatida esa butunlay yangicha ma'no, ya'ni *yaqinda bozorga keltirilgan* yoki *endi keltiriladigan narsa* tushunilyapti. Endi bu yangi hodisa ma'nosini emas, balki bozor bilan bog'liq ma'noni ifodalayapti va ma'no yanada konkretlashgan.

2.6. Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, butunning bir bo'lagini anglatadigan qo'shma so'zlar

Ushbu guruhga kiruvchi jami to'qqizta qo'shma so'z va so'z birikmasi topdik va ushbu so'z birikmalari va qo'shma so'zlarni tahlil qilish jarayonida bir-biridan qiziqarli ma'nolar yuzaga kelganini ko'rish mumkin.

die Altstadt

die alte Stadt

Alt – das Altglas so'ziga qarang.

Die Stadt – 1. Eine große Menge von Häusern und anderen Gebäuden, in denen Leute wohnen und arbeiten, mit einer eigenen Verwaltung;

2. Das Zentrum einer Stadt;

3. Die Personen, die in einer Stadt wohnen;

4. Die Verwaltung einer Stadt.

Die alte Stadt so'z birikmasi *eski, qadimiy shaharni* ifodalayapti. Qo'shma so'z sifatida qo'llanilganida esa unga *alt* so'zining yuqorida ko'rib o'tilgan 15 ta ma'nosidan 5 tasi to'g'ri keladi va qo'shma so'z shaklida uning ma'nosi yangicha ahamiyat kasb etadi va *qismni, butunning bir bo'lagini* ifodalaydi, ya'ni ushbu so'zda *shaharning eski bir qismini* anglatgan.

der Freitag

der freie Tag

Frei – 1. a) sich in Freiheit befindend, unabhängig, nicht gebunden;

b) keine Hilfsmittel gebrauchend;

c) nicht an (moralische) Normen gebunden, von (sittlichen)

Vorurteilen unabhängig;

die Altstadt

Der älteste Teil einer Stadt.

der Freitag

der fünfte Tag der Woche.

- d) nicht gebunden, nicht fest in den Bau des Atom(kern)s oder Moleküls eingefügt;
- 2.a) nicht behindert, nicht beeinträchtigt;
- b) durch bestimmte Dinge nicht mehr beeinträchtigt;
- 3.a) offen, unbedeckt, nicht umschlossen,
- b) unbekleidet, bloß;
- 4.a) unbesetzt, nicht von anderen benutzt,
- b) verfügbar;
- 5.Kostenlos;

6.Nicht gedeckt und daher anspielbar.

Der Tag – 1.Zeitraum etwa zwischen Sonnenaufgang, zwischen Beginn der Morgendämmerung und Einbruch der Dunkelheit;

2.a) Zeitraum von Mitternacht bis Mitternacht , Zeitraum von 24 Stunden, in dem sich die Erde einmal ganz um ihre Achse dreht;

b) Ehren-Gedenktag;

c) Zeit, die jemand durchlebt, erlebt.

3.Angehängter kurzer Schlussteil bei Jazzstücken;

4.Auf dem Bildschirm eines Computers Dargestelltes sichtbares Zeichen zur Strukturieren. z.B eines Textes.

Ushbu so'z birikmasida *frei* so'zining jami o'n ikkita ma'nosi mavjuda bo'lib, uni tarjima qilganimizda *bo'sh kun* ma'nosini anglatadi. Biroq qo'shma so'z tarkibida qo'llanilganda esa uning bironta ma'nosi ishtirok qilmaydi. *Der*

Freitag qo'shma so'zi *haftaning 5-kuni, ya'ni juma* ma'nosini ifodalayapti. Hafta kunlarining bittasi bo'lganligi uchun butunning bo'lagini ifodalovchi qo'shma so'z hisoblanadi.

der Freibetrag

der freie Betrag

Frei – der Freitag so'ziga qarang.

Der Betrag – bestimmte Geldsumme.

Der freie Betrag so'z birikmasidagi *frei* so'zining o'n ikkita ma'nosidan qo'shma so'z tarkibida 3 tasini uchratish mumkin va shunga asosan qo'shma so'zni quyidagicha tahlil qilamiz: *solliq to'lanmaydigan daromadning bir qismi*. So'z birikmasida *erkin bo'lgan ma'lum pul summasi, ya'ni xohlaganicha ishlatish mumkin bo'lgan pul* nazarda tutilgan.

der Freibetrag

Ein Teil des Einkommens, für den

man keine Steuern zahlen muss.

das Frühjahr

das frühe Jahr

Früh – die Früherkennung so'ziga qarang.

Das Jahr – 1.Die Zeit vom 1.Januar

bis 31.Dezember;

2.Ein Zeitraum von ungefähr 365 Tagen,

den man von einem beliebigen Zeitpunkt

an zählt.

Qo'shma so'z tarkibida *früh* sifatining ma'nosi qisman saqlangan *desak ham* bo'ladi. Chunki qo'shma so'z shaklida *yilni boshlab beruvchi bahor faslini* anglatadi. Bahor to'rtta yil fasllarining bittasi bo'lganligi orqali butunning bir bo'lagini ifodalagan.

das Frühjahr

Abschnitt des Jahres zwischen

Winterende und Ende des

Frühlings.

das Kurzwort

das kurze Wort

Kurz – 1.Von einer relativ geringen räumlichen Ausdehnung;

2.So, dass es sich nur über einen kleinen Zeitraum erstreckt;

das Kurzwort

Ein Wort, das aus Teilen eines oder mehrerer Wörter gebildet ist. z.B: Uni

3. Nicht weit vor, hinter etwas;
4. So, dass es nur wenige Zeilen oder Worte und wenige Details umfasst;
5. So, dass der Betreffende schnell handelt, nicht zögert = rasch;
6. Mit dem genannten geringen Umfang, der geringen Länge.

Das Wort – 1.a) kleinste selbständige sprachliche Einheit von Lautung und Inhalt b.z.w. Bedeutung;

b) Wort in speziellem Hinblick auf seinen bestimmten Inhalt, Sinn, Ausdruck, Begriff;

2.(Pl. Worte) etwas, was jemandem als Ausdruck seiner Gedanken, Gefühle oder zusammenhängend äußert.

Das kurze Wort soʻz birikmasi *qisqa* soʻz maʼnosini bildiradi. Masalan bu bir boʻgʻindan iborat boʻlgan kichik soʻz boʻlishi mumkin. Uning tarkibidagi *kurz* soʻzining 4 ta maʼnosi qoʻshma soʻz tarkibida mavjud. Biroq qoʻshma soʻz sifatida yangicha maʼno ifodalagan, yaʼni *qisqartma* soʻzni anglatyapti. Soʻzning bir qismini aytish orqali butun bir soʻz tushuniladi. Masalan *die Uni* soʻzini olsak, u qisqartma, *Die Universität* soʻzining qisqartmasi.

der Dünndarm

der dünne Darm

Dünn – 1.a) eine geringe Stärke, Dicke, einen geringen Umfang abweisend;

b) hager, mager;

2.a) fein, zart, leicht

b) nicht dicht, spärlich;

c) schwach;

3. Weniger gehaltvoll.

Der Darm – 1. Schlauförmiger Teil des

der Dünndarm

Der Teil des Darms, der direkt an den Magen anschließt.

Verdauungsapparates;

2. Bearteter, vorwiegend bei der
Wurstherstellung verwendeter Darm von
Schlachtetieren.

Soʻz birikmasi holatida *der dünne Darm* inson ichki aʼzosi boʻlgan nozik *ichak* maʼnosini anglatyapti. Qoʻshma soʻz sifatida qoʻllanilganda esa *toʻgʻridan toʻgʻri oshqozonga borib qoʻshiladigan ichakning bir qismini* ifodalagan. Demakki butunning boʻlagini koʻrsatyapti.

der Dickdarm

der dicke Darm

Dick – der Dickschädel soʻziga qarang.

Der Darm – der Dünndarm soʻziga qarang. des Darms nach dem Dünndarm.

der Dickdarm

Der relativ dicke und kurze Teil

Ushbu soʻz ham yuqorida izohlab oʻtgan soʻzimizga aynan oʻxshaydi.

Der dicke Darm soʻz birikmasi holatida *inson ichki aʼzosi boʻlgan yoʻgʻon ichakni* anglatyapti. Qoʻshma soʻz shaklida qoʻllanilganida ham *dick* sifati oʻz maʼnolarining 2 tasini saqlab qolgan. Biroq oʻzi qoʻshilib kelgan soʻz bilan birgalikda yana bir yangi maʼno ifodalagan, yaʼni *ichakning nozik ichakdan keyin boshlanuvchi nisbatan yoʻgʻon va qisqa qismini* anglatyapti.

2.7. Birikma holatidagi umumiy maʼnosi oʻzgarib, qoʻshma holatda ularning konkret bir turini anglatadigan qoʻshma soʻzlar

Ushbu guruhga mansub boʻlgan oʻnta soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz topdik. Ular predmet, faoliyat va boshqa narsalarning yangicha boshqa bir turini ifodalab keladi. Quyida ularni koʻrib chiqamiz va tahlil qilamiz:

die Frischkäse

die frische Käse

Frisch – 1. Gerade erst geerntet, erzeugt,
nicht gelagert;

2. Nicht haltbar gemacht, nicht konserviert;

die Frischkäse

Eine Art fester Quark

3. Erst vor kurzem entstanden, geschehen;
4. Noch nicht benutzbar = sauber, neu;
5. Ausgeruht, nicht müde oder erschöpft;
6. Voller Lebensfreude und jugendlicher Kraft;
7. Wieder erholt, erneuert;
8. Kühl und nicht verschmutzt;
9. Ziemlich stark, kräftig;
10. Leuchtend;
11. Gerade erst von der lebenden Pflanze abgeschnitten, nicht welk oder trocken;
12. Gerade erst in den genannten Zustand gebracht oder gekommen.

Die Käse – 1. Ein festes Produkt aus Milch, das man meistens zu Brot isst;
2. Unsinn.

Die frische Käse soʻz birikmasi *yangi, toza pishloq* manʼnosini ifodalayapti. Qoʻshma soʻz tarkibida kelganida esa butunlay yangi maʼnoni anglatgan, yaʼni *pishloq turi, tvorogni* ifodalayapti. Demak endi yangi narsa, yangicha nom va yangi tur paydo boʻldi.

die Rotblindheit

die rote Blindheit

Rot – der Rotbart soʻziga qarang.
Die Blindheit – das Blindsein, fehlendes Sehvermögen; Verblendung.

die Rotblindheit

Blindheit für rote Farben infolge infolge Fehlens der für Rot empfindliches Netzhautstäbchen.

Qoʻshma soʻz sifatida *kasallik turini* ifodalaydi. Yaʼni koʻz qorachiqining asosiy qatlamidagi qizil rangni sezish xususiyati yoʻqligi sababli paydo boʻlgan kasallik. Bu kasalligi boʻlgan odam qizil rangni koʻra olmaydi, boshqa ranglardan ajrata olmaydi.

der Freitod

der freie Tod

Frei – der Freitag so'ziga qarang.

Der Tod – 1. Aufhören, Ende des Lebens;
Augenblick des Aufhörens aller Lebensfunktionen eines Lebewesens;
2. In der Vorstellung als meist schaurige,
düstere, grausame Gestalt gedachte
Verkörperung des Todes.

Der freie Tod so'z birikmasi *erkin o'lim* ma'nosini bildiradi. Qo'shma so'z sifatida kelganida esa *o'z joniga qasd qilish, o'zini o'zi o'ldirish* ma'nolarini anglatyapti, ya'ni o'lim turini ko'rsatadi. So'z birikmasi qo'shma so'z bo'lib kelganida *frei* sifatining ma'nosi shunda namoyon bo'ladiki, o'z joniga qasd qilgan odam qay tarzda o'zini o'ldirishini o'zi tanlaydi.

der Sauerbrunnen

der saure Brunnen

Sauer – so schmeckend, dass sich der
Mund zusammenzieht.

Der Brunnen – 1. Anlage zur Förderung von
Grundwasser durch Schöpfeimer oder
Pumpe;
2. Wasser einer natürlichen Quelle.

Der saure Brunnen so'z birikmasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, *sho'r quduq* degan ma'noni bildiradi. Qo'shma so'z shaklida kelganida ham *sho'r* ma'nosi mavjud, biroq endi yangicha bir ma'no yaralgan, ya'ni *rangsiz, yonmaydigan gazga, kimyoviy tilda aytganda kobaltga* boy bo'lgan davolovchi buloq degan ma'noni kashf qildi. Ya'na bir farqli jihati shundaki, *sho'r quduq*dan hech kim suv ichmaydi, kobaltga boy bo'lgan davolovchi buloq insonlar salomatligini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

der Freitod

Selbstmord, Suizid.

der Sauerbrunnen

An Kohlendioxyd reiche Heilquelle,
Säuerling.

die Großkatze

die große Katze

- Groß* – 1.verwendet, um die Maße eines Gegenstandes, eines Raumes oder einer Fläche oder die Länge des Körpers eines Menschen anzugeben;
2.So, dass es in Bezug auf die Länge, Höhe, den Umfang, das Volumen Vergleichbares übertrifft;
3.Mit vergleichsweise vielen Personen, Tieren oder Dingen
4.Zeitlich relativ lang
5.Von besonderer Bedeutung , besonders wichtig;
6.sehr gut;
7.Mit sehr starken Auswirkungen;
8.Wichtig, bedeutend;
9.Intensiv, stark;
10.Älter;
11.Mit viel Aufwand, Kosten;
12.In Bezug auf das Wesentliche, ohne wichtige Details
13.Verwendet, um eine rhetorische Frage zu verstärken.

Die Katze – 1.Hauskatze

- 2.In zahlreichen Arten fast weltweit
Verbreitetes katzenartiges Raubtier;
3.Geldbeutel.

die Großkatze

Großes katzenartiges Raubtier.

Die große Katze soʻz birikmasi holatida *boʻyi, ogʻirligi jihatidan katta mushukni* bildiradi. *Qoʻshma* soʻz sifatida esa *mushuksimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich hayvonni* anglatadi. Masalan u hayvon yoʻlbars, qoplon yoki gepard

bo'lishi mumkin. Bundan tashqari *groß* sifatining ko'pgina ma'nolari qo'shma so'z tarkibida mavjud. Buni yuqorida aytilgan hayvonlar misolida yaqqol ko'rish mumkin, ya'ni bu hayvonlar yirtqich bo'lishi bilan birga mushukka nisbatan ko'p barobar kattadir.

der Halbschuh

der halbe Schuh

Halb – In zwei gleiche Teile geteilt,
nur einen von zwei gleichen Teilen
eines Ganzen umfassend, die Hälfte von;
Der Schuh – Fußbekleidung des Menschen;
Hülle aus Eisen um das untere Ende von
Lanzen, Pfählen.

der Halbschuh

So'z birikmasi holatida *der halbe Schuh* yarim tuflini, ya'ni faqat *yarmi bor bo'lgan* poyabzalni anglatadi. Qo'shma so'z holatida esa biroz boshqacha ma'no kasb etyabdi. Bunda u *faqat to'piqqacha keladigan oyoq kiyimini* nomalagan va shu orqali uni etikdan farqlash mumkinligini va yana bitta poyabzal turini ko'rsatgan.

die Fernreise

die ferne Reise

Fern – die Fernbedienung so'ziga qarang.
Die Reise – 1. Fortbewegung über eine
größere Entfernung;
2. Trumhafter Zustand des Gelöstseins
nach der Einname von Rauschgift, Rausch.

die Fernreise

Eine Urlaubsreise in ein weit
entferntes Land.

So'z birikmasi holatida *die ferne Reise* *uzoq sayohat* degan ma'noni angalatadi. Qo'shma so'z shaklida qo'llanilganda esa *uzoq mamlakatga mehnat ta'tili* degan ma'noni ifodalayapti, ya'ni ta'til turini bildirayapti.

der Langlauf

der lange Lauf

Lang – 1.a) in räumlicher Ausdehnung nach einer Richtung den Durchschnitt oder eine Vergleichsgröße übertreffend; von größer räumlicher Ausdehnung in einer Richtung;

b) hochgewachsen, von hohem Wuchs;
c) in viele Worte gefasst und daher einigen Platz beanspruchend.

2.Sich über einen großen Zeitraum erstreckend; eine beträchtliche relativ große Zeitspanne umfassend.

Der Lauf – 1.Das Laufen;

2.Durchgang in einem Wettbewerb oder Rennen;

3.Das Laufen einer Maschine;
ununterbrochene Bewegung von etwas;

4.Das Sicherstrecken, Verlauf in einer bestimmten Richtung;

5.Verlauf, den etwas nimmt;

6.Schnelle, stufenweise auf-oder absteigende Tonfolge;

7.Bein bestimmter Wildarten oder Hundes;

8.Rohr von Schusswaffen.

der Langlauf

Eine Sportart, bei der man auf schmalen Skiern relativ lange Strecken im Wald und auf Feldern zurücklegt.

Der lange Lauf soʻz birikmasi *uzoq yugurish*, *uzoq masofaga yugurish* kabi maʼnoni ifodalaydi. Qoʻshma soʻz shaklida kelganida ham *uzoq masofa* maʼnosi mavjud, biroq endi bu yerda yana yangicha maʼno, yaʼni *changʻi bilan oʻrmon va dalalarda uzoq masofalarni bosib oʻtish* nazarda tutilyapti. Bu ham alohida bir sport turi hisoblanadi.

der Falschfahrer

der falsche Fahrer

Falsch – 1.a) künstlich und meist täuschend ähnlich nachgebildet, imitiert;
2.Dem tatsächlichen Sachverhalt, der realen Gegebenheit nicht entsprechend; nicht stimmend;
3.Einer gegebenen Situation nicht angemessen; unangebracht;
4.Nicht der Wahrheit entsprechend; irreführend;
5.böse, erzürnt, wütend.

Der Fahrer – a) jemand, der fährt;
ein Fahrzeug führt;
b) jemand, der berufsmäßig ein (Kraft)fahrzeug fährt.

Ushbu qo'shma so'z ham turni, ya'ni salbiy xarakter xususiyatiga ega bo'lgan insonlar turini ko'rsatishga xizmat qilyapti. Bu yerda inson turi deganda kasbga nisbatan aytilyabdi. *Der Falschfahrer* avto yo'lda qoidada belgilangan yo'nalishda haydamaydigan va boshqalarni havf ostiga qo'yuvchi haydovchidir.

der Falschfahrer

Jemand, der auf einer Autobahn nicht in der vorgeschriebenen Richtung fährt und so andere gefährdet.

das Freibad

das freie Bad

Frei – der Freitag so'ziga qarang.
das Bad – 1.a) größere Menge temperiertes Wasser in einer Wanne zur Reinigung, Erfrischung des Ko'rpers, oder zu Heilzwecken;
b) das Baden in einer mit Wasser gefüllten Wanne;

das Freibad

Ein öffentliches Schwimmbad im Freien.

- c) das Baden, Schwimmen in einem Schwimmbad, See, im Meer;
- 2.a) Badezimmer;
- b) Schwimmbad, Hallenbad, Erlebnisbad,
- 3.Ort mit Heilquellen, Kurort;
- 4.Bestimmte Lösung, Flüssigkeit, die bei eingetauchten Gegenständen eine Reaktion hervorruft.

Soʻz birikmasi holarida *das freie Bad boʻsh, ichida hech kim yoʻq boʻlgan vannani* bildiriyapti. Qoʻshma soʻz shaklida qoʻllanilganda esa *keng maydonda joylashgan ochiq basseyn* nazarda tutilgan. *Frei* soʻzi qoʻshma soʻz tarkibida kelganida u asosan keng maydon, boʻsh joyni koʻrsatishga va oʻsha joyda qurilgan basseynni ifodalashga xizmat qilyapti.

2.8.Birikma holatidagi maʼnosini oʻzgartirib, narsa va hodisalarning makon va zamon darajalarini bildirgan qoʻshma soʻzlar

Ushbu guruhga monand boʻlgan toʻrtta qoʻshma soʻz va soʻz birikmasi topdik. Ularning qoʻshma soʻz shaklida narsa va hodisalarning makon va zamon darajalarini anglatganligini koʻrib chiqamiz va tahlil qilamiz:

die Großstadt

die große Stadt

Groß – die Großkatze soʻziga qarang.
Die Stadt – größere, geschlossene, vom Dorf durch bestimmte Rechte unterschiedene Wohnsiedlung.

die Großstadt

Stadt mit mehr als 100000 Einwohnern.

Die große Stadt soʻz birikmasi *aholi soni 100000 dan kam boʻlgan shaharni* ifodalash uchun qoʻllaniladi. Qoʻshma soʻz shaklida esa *aholi soni 100000 dan koʻp boʻlgan* shaharga nisbatan aytiladi. Qoʻshma soʻz shaklida kelganida ham, soʻz birikmasi tarzida qoʻllanilganda ham aholi darajasi ifodalanyapti.

die Kleinstadt

die kleine Stadt

- Klein* – 1. Von geringem Ausmaß, von geringer Größe;
2. Mit vergleichsweise wenigen Personen, Tieren oder Dingen;
3. In der Menge oder im Wert nicht sehr groß oder hoch
4. Zeitlich relativ kurz;
5. Von geringer Bedeutung, unwichtig;
6. In einer niedrigen, beruflichen oder gesellschaftlichen Position = unbedeutend;
7. Noch nicht erwachsen, jung;
8. In der Form, die man innerhalb eines Wortes verwendet;
9. Mit Verb verwendet, um auszudrücken, dass etwas kleiner wird und kleine Stücke entstehen.

Die Stadt – die Großstadt so'ziga qarang.

Die kleine Stadt so'z birikmasi 5000-20000 dan kam bo'lgan aholiga ega bo'lgan shahar, Qo'shma so'z tarzida esa aholi soni 5000-20000 oralig'ida bo'lgan shahar. Ushbu so'z ham yuqorida izohlangan so'zdagi kabi aholi soni darajasini ifodalayapti.

die Kleinstadt

Stadt mit 5000 bis 20000 Einwohnern.

die Kurzarbeit

die kurze Arbeit

Kurz – Das Kurzwort so'ziga arang.
Die Arbeit – 1. Die Tätigkeit, bei der man geistige oder körperliche Kräfte einsetzt und mit der man einen bestimmten Zweig verfolgt;

die Kurzarbeit

Eine Arbeitszeit, die kürzer ist als normal, weil es im Betrieb gerade nicht genug Arbeit gibt.

2. Die Tätigkeit, die man als Beruf ausübt;
3. Die Mühe oder Anstrengung, die man hat, wenn man sich mit jemandem/etwas beschäftigt;
4. Das Ergebnis einer planvoller Tätigkeit;
5. Eine schriftliche oder praktische Prüfung.

Die kurze Arbeit soʻz birikmasi *qisqa, tez bajariladigan ish* maʼnosini anglatyapti. *Qoʻshma* soʻz holatida esa *ishxonada ish oʻrni tanqisligi sababli umumiy ish bir yoki undan ortiq odam oʻrtasida taqsimlanadi*. Demak nemis tilida ushbu holat *die Kurzarbeit* soʻzi bilan izohlanadi, ammo bizning lugʻatlarimizda hali ushbu hodisani tasvirlovchi soʻz mavjud emas. Ushbu soʻz vositasida ishning kamlik darajasi anglashilyapti.

der Langfinger

der lange Finger

Lang – der Langlauf soʻziga qarang.

Der Finger – 1. Eines der fünf beweglichen Glieder der Hand bei Menschen und Affen;
2. Teil des Handschuhs, der einen Finger umschließt.

der Langfinger

Dieb

Ushbu soʻz birikmasi *qoʻshma* soʻz sifatida qoʻllanilganida juda ham qiziqarli maʼno kelib chiqishiga guvoh boʻlishingiz mumkin. *Der lange Finger* soʻz birikmasi *uzun barmoq* degan maʼnoni bildiradi. *Qoʻshma* soʻz boʻlib kelganida esa umuman boshqacha yangi maʼno kasb etadi, yaʼni *oʻgʻri* nazarda tutilgan. Bu yerda maʼno koʻchib oʻtgan desak ham boʻladi. Uzun barmoq asnosida *oʻgʻri* tushunilyapti.

2.9. Birikma holatidagi asliy maʼnosi oʻzgarib, qoʻshma holatda yangi maʼno kashf etgan qoʻshma soʻzlar

Ushbu guruhga mansub boʻlgan uchta soʻz topdik. Bu soʻzlar asosida yangi maʼnolar yuzaga kelganini koʻrishingiz mumkin.

die Feinmechanik

die feine Mechanik

Fein – 1.a) von dünner, zarter Beschaffenheit,
b) von angenehm-zartem Äußern, nicht grobes enthaltend;

2.a) einfühlsam, freisinnig;

b) fähig, auch nur andeutungsweise vorhandene Sinneseindrücke wahrzunehmen bzw. auf Impulse zu reagieren; empfindlich;

3.Von ausgezeichneter Qualität, hochwertig, vorzüglich;

4.Gepflegt, vornehm, elegant.

Die Mechanik – 1.a) Wissenschaft von der Bewegung der Körper unter dem Einfluß äußerer Kräfte oder Wechselwirkungen;

2.Maschinen - und Gerätekunde;

3.Mechanismu;

4.Monotone Zwangsläufigkeit, selbststättiger Ablauf.

Die feine Mechanik so'z birikmasi shaklida *nozik va mayin mexanika* degan ma'noni anglatadi. Qo'shma so'z tarzida esa *murakkab bo'lgan mexanik, elektrtik yoki optik asboblarni ishlab chiqaradigan texnikaning bir sohasini* bildiradi va shu orqali yangi ma'no ifodalayapti. Qo'shma so'zda *fein* so'zining 1-2 ta ma'nolari mavjud. Chunki mexanik, elektrtik va optik asboblari juda noziklik va mayinlik bilan ishlanadi. Agar ehtiyotsizlik bilan ishlatilsa, ularning tez sinishi yoki buzilishi hech gap emas.

der Rotgießer

der rote Gießer

Rot – der Rotbart so'ziga qarang.

der Rotgießer

Arbeiter in der Kupfer-oder

Der Gießer – Arbeiter in der Gießerei, Bronzegießerei.
der Metall in Formen gießt.

Soʻz birikmasi boʻlgan *der rote Gießer metalni qolipga quyish korxonasida ishlovchi ishchi* maʼnosini bildiradi. Qoʻshma soʻz shaklida esa *mis va bronza quyish korxonasida ishlovchi ishchi* nazarda tutilyapti va shu orqali yangicha maʼno ifodalangan. Bilamizki, mis va bronza quyish jarayonida ular yuqori haroratli olovda eritiladi va keyin qoliplarga quyiladi. Ana shu jarayon paytida ishchi juda yuqori issiqlik haroratida ishlaydi va natijada issiqdan qizaradi. Shu sababli ham qoʻshma soʻz tarkibida *rot* sifati qatnashgan desak ham boʻladi.

die Fernabfrage

die ferne Abfrage

Fern – die Fernbedienung soʻziga qarang.
Die Abfrage – 1.Ermittlung bestimmter Informationen durch eine Anfrage, statistische Erhebung;
2.Gewinnung von Daten aus einem Datenspeicher oder Feststellung von Informationen auf bestimmten Speicherplätzen.

der Fernabfrage

Die Möglichkeit oder die Handlung, bei der längerer Abwesenheit von zu Hause die eigene Telefonnummer zu wählen und die Anrufe abzuhören, die der Anrufbeantworter inzwischen aufgenommen hat.

Die ferne Abfrage soʻz birikmasi *uzoqdan soʻrash* maʼnosini bildiradi. Qoʻshma soʻz shaklida esa butunlay yangi maʼno kashf qilgan, yaʼni *uyda boʻlmagan paytda qoldirilgan xabarlarni yozib olish va eshitish imkoniyati mavjud boʻlgan telefon* nazarda tutilyapti. Uyga kelganingizdan keyin telefon tugmachasini bosasiz va oʻz ishingizni qilish jarayonida uyda yoʻq paytingizda sizga qoldirilgan ovozli xabarlarni uzoqroq joyda yurib ham eshitishingiz mumkin.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimizga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlar orasidagi maʼno farqlarini tahlil qilish jarayonida soʻz birikmasiga qaraganda qoʻshma soʻzning maʼnosi oʻzgarishiga guvoh boʻldik. Bundan kelib chiqadiki, soʻz birikmalari anglatgan maʼnolari bilan qoʻshma soʻz anglatgan maʼnolar bir-biridan keskin farq qiladi. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, ularning soʻz birikmasi holatidagi maʼnosini oʻzgartirib turli xil maʼnolar anglatib kelishiga koʻra koʻrib chiqamiz va farqlar biz yigʻgan misollarda quyidagi holatlarda namoyon boʻladi.

1. Birikma holatidagi maʼnosini tubdan oʻzgartirgan qoʻshma soʻzlar (das Altpapier, das Altglas). Ushbu misollar orqali soʻz birikmasi tarkibidagi til birliklarini qoʻshma soʻzlar holatida oʻz maʼnolarini tubdan oʻzgartirganliklarini yetarlicha izohlab berish mumkin

2. Birikma holatidagi maʼnolarini ijobiylashtirgan yoki salbiylashtirgan qoʻshma soʻzlar (die Braunkohle, das Altgold, die Rohbaumwolle). Ular narsa va hodisalarning rang (braun, grau), sifat (alt), butunlik (halb), ishlov berilmaganlik (roh) kabi xususiyatlari bilan bogʻliq. Mazkur misollarda qoʻllanilib kelayotgan sifatlovchilar qoʻshma soʻz tarkibida kelganida ushbu soʻzning maʼnosini yanada ijobiylashgabliligini yoki aksincha salbiylashganligini koʻrish mumkin.

3. Birikma holatidagi maʼnosini koʻchma metanimik maʼno (bahuvrihi)ga aylantirgan qoʻshma soʻzlar (der Dickschädel, der Schwachkopf, der Dummkopf). Ularning maʼnolarini tahlil qilish jarayonida esa ushbu soʻz birikmalarining qoʻshma soʻz sifatida qoʻllanganida bir-biridan qiziq maʼnolar kelib chiqqaniga guvoh boʻldik. Bunda inson yoki jonzotlarning bitta xarakter xususiyati yoki holatini ifodalash orqali oʻsha shaxs yoki jonzot nomlanadi.

4. Birikma holatidagi maʼno qisman saqlanib, koʻchma maʼno, metaforik xususiyat kashf etgan qoʻshma soʻzlar (die Duftwolke, der Duftstoff). Ushbu guruhga mansub ikkita soʻz topdik va shular orqali qoʻshma soʻzning birikma

holatida ma'nosi qisman saqlanib, ko'chma ma'no, metaforik xususiyat kashf qilishini izohlashga harakat qildik.

5. Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, xususiylashib, maxsus sohaga oidlik kashf etib kelgan qo'shma so'zlar (die Früherkennung, die Neuerscheinung). Ushbu guruhga kiruvchi misollar orqali biz birikma holatidagi ma'nosini butunlay o'zgartirib xususiylilik, ma'lum bir sohaga oidlikni kashf qilgan qo'shma so'zlarni tahlil qildik.

6. Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, butunning bir bo'lagini anglatadigan qo'shma so'zlar (die Altstadt, der Freitag). Ushbu guruhda ham birikmaning ma'nosi keskin o'zgarishiga va qo'shma so'z holatida butun va bo'lak tushunchalarini ifodalaganini ko'ramiz.

7. Birikma holatidagi umumiy ma'nosi o'zgarib, ularning konkret bir turini anglatadigan qo'shma so'zlar (das Freibad, der Frischkäse). Ular predmet, faoliyat va boshqa narsalarning yangicha boshqa bir turini ifodalab keladi.

8. Birikma holatidagi ma'nosini o'zgartirib, narsa hodisalarning zamon va makon darajalarini bildiradigan qo'shma so'zlar (der Langfinger, die Kurzarbeit).

9. Birikma holatidagi asliy ma'nosi o'zgarib, qo'shma holatda yangi ma'no kashf etgan so'zlar(die Fernabfrage, der Rotgieße).

Xulosa yakunida yana shu narsani ma'mnuniyat bilan qayd qilish lozimki, har qanday til boyishi, rivojlanishi va uning ifoda qudratini oshishiga tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmalarining qo'shma so'z shaklida yangicha ma'nolar ifodalashi katta hissa qo'sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1875-sonli qarori.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Havfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B. 328.
3. A. Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulov. „Tilshunoslikka kirish“ Toshkent. „O'qituvchi“, 1981.
4. Azizov.O „Tilshunoslikka kirish“ Toshkent. „O'rta va oliy maktab“ davlat nashriyoti, 1963.
5. Ammer. K „Einführung in der Sprachwissenschaft“ Halle. 1958
6. Behaghel. O „Die deutsche Sprache“ Mit Hinweisen und Anmerkungen von Friedrich Maurer. Halle. 1953.
7. Brinkmann. H „Die Zusammensetzung im Deutschen“ In Sprachforum 2. 1957.
8. Contardo. L „Untersuchungen zu den mit einem Verbalstamm zusammengesetzten Substantiven in der deutschen Sprache der Gegenwart“ Leipzig. 1973.
9. Heidolph K. E „Beziehungen zwischen Kompositum und attributiven Substantivkonstruktionen in der deutschen Gegenwartssprache“ Berlin. 1962.
10. Iskos. A und Lenkova. A „Deutsche Lexikologie“ Vermehrte und verbesserte Auflage, Leningrad. 1970.
11. Jung. W „Grammatik der deutschen Sprache“ Leipzig. 1973.
12. Kleine Enzyklopädie „Die deutsche Sprache“ 1969.
13. Langenscheid (Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache)
14. Morcinies. N „Wort, Wortzusammensetzung und Wortgruppe. Ein Beitrag zur Strukturkenntniss der westgermanischen Sprachen“ Wratislaviensia. 1960.
15. Morcinies. N „Wortbedeutung und Wortzusammensetzung“ Wratislaviensia. 1964.

16. Morcinies. N „Die nominalen Wortzusammensetzungen in der westgermanischen Sprache“ Wroclaw. 1964.
17. Müller. W „Wortbildung – Ausdruck der Zeit“ 1961.
18. Paul. H „Deutsche Grammatik“ Halle. 1920.
19. Pavlov. V.M „Die substantivische Zusammensetzung im Deutschen als syntaktisches Problem“ München. 1972.
20. Petermann. H „Semantische Veränderungen erster Kompositionsglieder im Grenzbereich zwischen Zusammensetzungen und Präfixbildungen“ In Deutsch als Fremdsprache, 1971.
21. Schmidt. W „Deutsche Sprachkunde“ Berlin. 1968.
22. Serebrennikov. B. A „Die innere Struktur der Sprache“. Ins Deutsche übertragen und herausgegeben von Hans Zikmund und Günter Feudal, Berlin. 1975.
23. Starke. G „Zum Problem der Zusammenbildung in der deutschen Gegenwartssprache“ , In Deutsch als Fremdsprache, 1968.
24. Stepanova. M. D „Die Zusammensetzung und „innere Valenz“ des Wortes“, in Deutsch als Fremdsprache, 1967.
25. Werneke. H „Über den Ursprung und Charakter der deutschen Sprache“ Preußische Jahrbücher, 1918.
26. Wahrig (das große deutsche Wörterbuch von Gerhard Wahrig in Zusammenarbeit mit zahlreichen Wissenschaftlern und anderen Fachgelehrten) Güterslohn. 1967.
27. Wörter und Wendungen (Wörter und Wendungen von Erhard Agricola, überarbeitete und erweiterte Auflage) Leipzig. 1972.

Urganch davlat universiteti filologiya fakulteti nemis tili ta'lim yo'nalishi

“TASDIQLAYMAN”

Fakultet dekani:

Z. Jumaniyozov

„5“ noyabr y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Rajabbayeva Shoira Umirbek qizining

„Nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmasi va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlari“ bitiruv malakaviy ish mavzusi universitet rektorining „___“ ___dagi „___“- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Kafedra yig'ilishining qaroriga binoan Jumaniyozov A. J bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:

KIRISH

I.BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z BIRIKMALARI VA QO'SHMA SO'ZLARNING O'RGANILISHI

1.1.O'z'bek tilida so'z birikmalari

1.2 Nemis tilida so'z birikmalari

1.3 O'zbek tilida qo'shma so'zlar

1.4 Nemis tilida qo'shma so'zlar

1.5 So'z birikmalarining qo'shma so'zlardan farqi

II. BOB. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA TARKIBI BIR XIL LEKSIK BIRLIKLARDAN IBORAT SO'Z BIRIKMALARI VA QO'SHMA SO'ZLARDAGI MA'NO FARQLARI

2.1 Birikma holatidagi ma'nosini tubdan o'zgartirgan qo'shma so'zlar

2.2 Birikma holatidagi ma'nolarini ijobiylashtirgan yoki salbiylashtirgan qo'shma so'zlar

2.3 Birikma holatidagi ma'nosini ko'chma metanimik ma'no (bahuvrihi)ga aylantirgan qo'shma so'zlar

2.4 Birikma holatidagi ma'no qisman saqlanib, ko'chma ma'no, metaforik xususiyat kashf etgan qo'shma so'zlar

2.5 Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, xususiylashib, maxsus sohaga oidlik kashf etib kelgan qo'shma so'zlar

2.6 Birikma holatidagi ma'nosi o'zgarib, butunning bir bo'lagini anglatadigan qo'shma so'zlar

2.7 Birikma holatidagi umumiy ma'nosi o'zgarib, ularning konkret bir turini anglatadigan qo'shma so'zlar

2.8 Birikma holatidagi ma'nosini o'zgartirib, narsa hodisalarning zamon va makon darajalarini bildiradigan qo'shma so'zlar

2.9 Birikma holatidagi asliy ma'nosi o'zgarib, qo'shma holatda yangi ma'no kashf etgan so'zlar.

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

4. Ishni topshirish muddati: "27" "may 2016y."

5. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

1. O. Azizov „Tilshunoslikka kirish“ Toshkent 1963

2. A. Sodiqov, A. Abduazizov, M. Irisqulov "Tilshunoslikka kirsh" Toshkent, 1981

3. "Wörter und Wendungen" Erhard Agrikola Leipzig, 1979

6. Ishning maqsadi:

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusidan ma'lumki, ishimizning asosiy maqsadi nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmalari va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlarini o'rganishdir.

7. Ilova, jadval, rasm, grafik tasvir va boshqa materiallar ro'yxati:

8. Maslahatchilar: Ilmiy rahbar: Jumanoyozov A.J

Kafedra mudiri: Abdullayeva G.E

BMI bo'limlari	Maslahatchi F.I.SH.	Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Reja	Jumanoyozov A.J.		
Kirish	Jumanoyozov A.J.		
I Bob	Jumanoyozov A.J.		
II Bob	Jumanoyozov A.J.		
Xulosa	Jumanoyozov A.J.		
Adabiyotlar ro'yxati			

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni:

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Y. Ismoilov

7. Ilmiy rahbar: Jumanoyozov A. J

8. BMI bajaruvchi talaba: Rajabbayeva Shoiru Umirbek qizi

9. Kafedra mudiri: Abdullayeva G. E

Urganch davlat universiteti

Filologiya fakulteti nemis tili ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Rajabbayeva Shoiraning "Nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmalari va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "30" may dagi majlisida himoya qilindi.

Davlat Attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishiga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yuritilishi	10	8
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	82
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiflarning mavjudligi	10	4
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Xorijiy adabiyotlar va internet materiallaridan foydalanish	10	4
5	Ishni bajarishda imlo, ishora va uslub (grammatika) qoidalariga amal qilinganligi	10	4
6	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	15	15
7	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr	10	—

qilinganligi		
Jami:	100	86

Davlat Attestatsiyasi komissiyasi majlisining qarori:

1. Talaba "Nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmasi va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ishi uchun 86 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va "o'lo" deb baholansin.

2. Sh. Rajabbayevaga DAKning 2016 yil 11 iyun 4-sonli bayonnomasi qaroriga ko'ra Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha addiy baxolaviy diplomi berilsin.
DAK raisi: [imzo] Umarov J. E.

Imzo

F.I.SH

A'zolari:

Imzo

F.I.SH

Imzo

F.I.SH

"11" iyun 2016 y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti nemis tili yo'nalishi

Bitiruv malakaviy ish 14 sonli tartib raqami bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchisi: Rajabbayeva Shoirra Umirbek qizi

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: „Nemis va o'zbek tillarida tarkibi bir xil leksik birliklardan iborat so'z birikmasi va qo'shma so'zlardagi ma'no farqlari“

Ilmiy rahbar (maslahatchi):  A.J. Jumaniyozov


Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2016 y "30" may da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Y. Ismoilov tayinlandi.

Kafedra mudiri: 

Abdullayeva G.E

Kafedra bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: 

Jumaniyozov Z.A